

O'ZBEKISTONDA — OLIY TA'LIM —

Высшее образование в Узбекистане
Higher education in Uzbekistan
ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal

№2 2025-yil

ISSN 2181-3051

www.edujournal.uz



/edujournal.uz



/edujournal.uz



/edujournal_uz



/edujournaluz



*“Biz yoshlarimizni nafaqat zamon
bilan hamnafas, balki kelajakka
tayyor qilib tarbiyalashimiz kerak.
Hech qachon unutmaylik, kelajak –
zamonaviy bilimlar bilan qurollangan
yangi kasb egalariniki bo‘ladi”.*

**Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

O‘ZBEKISTONDA — OLIY TA’LIM —

Tahrir hay’ati raisi:
Qo’ng’irotboy Sharipov
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Bosh muharrir:
Abduvali Xoliqov
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay’ati a’zolari:
Oqil Salimov
Shavkat Ayupov
Sadritdin Turobjonov
Inomjon Majidov
Qalandar Abdurahmonov
Shuhrat Sirojiddinov
Shuhrat Yoqubov
Mahmudjon Boltabayev
Qobil Ro’ziyev (Angliya)
Anush Ayrapetova (Rossiya)
Atham Hudoyqulov
Rustam O’rinboyev (Shvetsiya)
Mustafa Karatash (Turkiya)
Muhammadolim Muhammadsiddiqov
Ismoil Saifnazarov
Akmaral Magauova (Qozog’iston)
Morozevich-Shilyuk Tatyana Anatolevna (Belorussiya)
Halim Saidov
Sadoqat Maxsumova
Nozima Muratova
Muzaffar Esanov
To’ychi Ahmedov
Vazira Abdujanova
Jaxongir Usmanov

Dizayner:
Sunnatulla Musamedov

Manzil: Toshkent shahri, 2
Chimboy ko’chasi, 96 uy

Sayt manzili:
www.edujournal.uz

Elektron pochta:
press@devedu.uz

Telefon:
(+998 71) 207-03-43 (125)

Jurnal O‘zbekistondagi oliy ta’lim
muassasalariga tarqatiladi.

Muassis:
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan
1495-raqamli guvohnoma bilan
29.12.2021 sanasida ro’yxatdan o’tkazilgan.
“O‘zbekistonda oliy ta’lim” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining 2022-yil 30-noyabrda № 327/6-sonli qarori bilan
iqtisodiyot, yuridik, filologiya, pedagogika va siyosiy fanlar, Oliy
attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 25-dekabrda 365-son
qarori bilan texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan
dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA:

TAHRIRIYAT MINBARI

2 Nurshod Norqulov. Oliy ta’lim – faqat diplom uchun emas

FIKR

14 Dato’ Sri Dr. Daing Mohd Nasir bin Daing Ibrahim. O‘zbe-
kiston oliy ta’limi xalqaro standartlarga javob beradimi?

MILLIY Tajriba

23 Abdurahim Nasirov. O‘zbekistonda fransuz tilining o‘qitilishi

OLIY TA’LIM ISTIQBOLLARI

38 Zufar Tohirov. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyala-
ridan samarali foydalanish

TADQIQOT

48 Madinabonu Nurutdinova. Onlayn jurnalistikada tahririyatlar
faoliyatining o‘ziga xosligi

TADQIQOTCHI YON DAFTARIGA

59 Faxriddin Abdikarimov. Scopus va Web of Scienceda ma-
qola nashr qilish muammo emas

OLIY TA’LIM ISTIQBOLLARI

64 Farruxjon Fayziyev. Oliy ta’lim tashkilotini boshqarishning
institutsional tuzilmalari faoliyatini takomillashtirishning kon-
septual asoslari

72 Doniyor Aliqulov. Oliy ta’lim muassasalarini malakali peda-
gog xodimlar bilan ta’minlash

81 Muhammad Yo’ldashev. Tibbiyot yo’nalishi talabalari o’rtasi-
da masofaviy tajriba almashinuvini takomillashtirish

TADQIQOT

89 E’zozabonu Abdumutaliyeva, Mohinur Ismatova. Masofa-
viy ta’lim yangi tajribami?



Nurshod NORQULOV,

AQSHning Jorj Vashington universiteti Davlat siyosati bo'yicha magistri(MPP), Raqamli texnologiyalar vazirligi mutaxassisi, "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendianti

Oliy ta'lim – faqat diplom uchun emas

Bugungi suhbatimizda Raqamli texnologiyalar vazirligi mutaxassisi, "El-yurt umidi" stipendiyasi sohibi Nurshod Norqulov bilan Amerikada oliy ta'lim tizimining o'ziga xosliklari, u yerdagi talabalar hayoti, mustaqil ta'limning sinalgan usullari haqida gaplashamiz. Shuningdek, ta'lim oluvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar, o'quv jarayonidagi qulayliklar, ayniqsa, O'zbekistonda ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi fikr-mulohazalari hamda tavsiyalariga e'tibor qaratamiz. Mutaxassisning fikrlari ta'limga yangicha nazar bilan qarashga yordam beradi.

— TOP universitetlarda o'qishni hamma istaydi. Ammo xohishning o'zi bilan ish bitmaydi. Siz esa istakni harakatga keltira olganlarsiz. Nega aynan AQSH ta'limini tanlagansiz? Ungacha qanday yo'lni bosib o'tgansiz? Suhbatimizni aynan shu tanlovlaringizdan boshlasak.

— O'qish va tahsil olish — bu shunchaki bilim olish emas, balki inson hayotining uzluksiz jarayoni va muhim davridir. Unga nafaqat ma'lum bir bosqich sifatida, balki shaxs kamolotining asosiy yo'nalishi sifatida qarash kerak. Inson bu jarayonda barchasini deyarli noldan boshlaydi: tug'iladi, ongni anglaydi, muloqotga kirishadi va borliqni tushunishga harakat qiladi. Shu sababli o'qish — dunyoni anglash jarayonining ajralmas qismi sanaladi. Bu jarayonning qanday kechishi ko'plab omillarga bog'liq: insonning qayerda tug'ilgani, qanday muhitda voyaga yetgani, qanday oilaviy va ijtimoiy sharoitlarda tarbiya olgani — bularning barchasi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shaxsiy misolimda aytadigan bo'lsam, shukurki, men o'qish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarga ega muhitda voyaga yetganman. Ziyoli oilada tug'ilganman: otam o'z sohasida yuqori ilmiy daraja — texnika fanlari nomzodi unvoniga ega bo'lgan, uzoq yillar davlat idoralarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Onam filolog, rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, maktab direktori sifatida ko'p yillik tajribaga ega. Tabiiyki, otam oilamizda o'rganish, izlanish va fikrlash madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor berishgan. Biz farzandlar uchun ular ilm-fan va ta'limga bo'lgan mehrni erta yoshdanoq singdirishga harakat qilishgan. Natijada, men va opalarim bu ishonchni oqlashga intilib keldik.

Har birimiz oliy ta'lim bosqichidan o'tib, o'z yo'nalishimizda kasbiy o'rnimizni topishga harakat qilyapmiz. Katta opam o'n yil davomida tibbiy ta'lim olib, bakalavr va magistratura bosqichlarini tamomlagan, hozirda akusher-ginekolog bo'lib ishlaydi. Ikkinchi opam esa tarix yo'nalishida tahsil olib, umumta'lim maktabida tarix fani o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Men esa dastlab kompyuter texnologiyalariga qiziqqanman. Shu sababli kollejni shu yo'nalishda tugatganman. Biroq vaqt o'tishi bilan siyosat va boshqaruvga bo'lgan qiziqishim ortdi. Natijada, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU)ning xalqaro munosabatlar va jahon siyosati yo'nalishiga hujjat topshirdim. JIDUni tanlashim bejiz emas edi — bu qarorga otam katta turtki bergan. Esimda, 8-sinfda o'qib yurgan paytimda otam meni yonlariga chaqirib, oliy ta'lim haqida jiddiy suhbatlashgan edi. O'shanda JIDU va nufuzli ta'lim haqida birinchi bor ongli tasavvurga ega bo'lganman. Bu suhbat ongimda "JIDU=sifat+raqobat+nufuz" degan asosiy fikrni shakllantirgan. Mening tabiatan mukammallikka intiluvchi (perfeksionist) inson ekanligim va salohiyatimga ishonchim bu qarorni yanada mustahkamladi. O'zimga nisbatan yuqori talab qo'ygan holda JIDUga birinchi urinishdayoq o'qishga qabul qilindim. O'qish davomida doim yuqori natijalar sari intilib, imkon qadar

o'z ustimda ishladim. Har doim ham istagan natijaga erishmagan bo'lsam-da, eng muhimi — raqobatli ta'lim muhiti meni intizomli, izlanishga moyil va fikrlovchi inson sifatida shakllantirdi. “Diplomatiya” nomi bilan mashhur bo'lgan bu nufuzli oliy ta'lim muassasasi menga nafaqat chuqur bilim, balki hayotga, jamiyatga va o'zimga bo'lgan yangicha qarashni o'rgatdi. JIDUni bitirgach, ish izlashimga ehtiyoj qolmadi: ish beruvchilar o'zlari menga murojaat qila boshlashdi. O'sha vaqtda bir qancha Respublika ijro organlari va xususiy kompaniyadan takliflar bo'lgan. Biroq bu takliflarning aksariyati mening uzoq muddatli rejamga to'g'ri kelmas edi. Chunki men xorijda, xususan, AQShda yuqori sifatli magistrlik ta'limini olish, o'zimni yanada rivojlantirishni maqsad qilgandim. Ammo bu maqsadga erishish uchun faqatgina bakalavr diplomi va faol talabalik yetarli emas edi. AQShning nufuzli universitetlariga kirish uchun Statement of Purpose (maqsadlar bayoni) yoki Personal Statement (shaxsiy bayon) kabilar bilan birga GRE imtihonini topshirish ham talab etiladi. Bu test asosan oliy matematika va akademik ingliz tilidan iborat bo'ladi. Shuningdek, til bilish darajasi ham yuqori bo'lishi kerak, chunki AQShda ingliz tili ona tilidir. Yaxshiyamki, til ko'nikmalarim bilan bog'liq muammo bo'lmagan. Hatto, o'zimni qiynamay imtihon topshirganda ham yuqori ball olishimga ishonganman. Lekin GREga kelganda, qo'shimcha ter to'kishim kerak bo'lishini bilganman va men uchun faqat ishga sho'ng'ib ketadigan, shaxsiy rivojlanishga yo'l bermaydigan mehnat faoliyati tanlov emasdi. Chunki matematika-dan ancha yiroqlashib qolgandim. O'zbekis-

tonda axborot texnologiyalari oliy ta'limida yetakchi bo'lgan, Inha universiteti xalqaro bo'limida faoliyat boshlaganman. Bu ish joyi mening boshqa xususiyatlarim va qiziqishlarimning jamlanmasi bo'lgan. Oylik maoshim juda past edi, qiyoslaganda. Menga 5-6 barobar ko'p ish haqi taklif qilgan joylarga o'tmaganman va bundan hozir afsuslanmayman. Chunki shunga yarasha ish rejimi ertalab 9 dan kech 6 gacha edi. Bu esa aynan xorijda magistratura dasturlariga topshirishga tayyorlanishga imkon bergan. Aslida bakalavrni bitirib boq AQShda magistraturada o'qimoqchi bo'lganman, lekin shu GREga tayyorlanish imkonini bo'lmagan. Sababi 4-kursda Koreyada xalqaro talabalar almashinuvi dasturidan qaytganimda aynan GREga tayyorlanaman deb Toshkentga kelganimda uydagilar o'zi endi qaytding yana chet elga ketmoqchimisan? O'zimizda o'qisang ham bo'ladi magistraturani deyishgan. Shu sababli bu jarayon to'xtab qolgan. 5-kursda o'qishni bitirish arafasida ko'plab kursdoshlarim nufuzli grantlar va top universitetlarga qabul qilinib takliflar ola boshlagan. Men ular haqida uydagilarga maqtab xabar beraverganman. Oxiri o'zlari, “Sen ham topshir, agar borging kelsa”, deyishgan. Bo'lmasa diplomatiyani bitirganimdan qaysidir vazirlikka kirib mehnat faoliyati bilan qolib ketardim, balki. Qisqasi, Inhada ish boshlagan birinchi kunlarimdan oq nimaga xalqaro universitetlar reytinglariga kirish uchun harakat yo'q, degan savolni bera boshlaganman. So'ngra vaqt o'tib, Times Higher Education, QS va ARWU kabi universitetlar reytinglari metodologiyasini chuqur o'rgandim va ularga Inhani olib kirish uchun maxsus yo'l xaritasini



ham ishlab chiqdim. O'zbekistonda birinchi-lardan bo'lib yuqorida aytgan reyting agentlik-lari platformalarida Inhaning rasmiy sahifalari-ni ochdim. Reytinglar metodologiyasini o'rganganim qo'l kelib, o'zim qiziqish bildir-gan sohalar bo'yicha top universitet va dastur-larni tanlab oldim va ma'lum bir qismiga ariza topshirdim. Ba'zilariga topshirolmaganimning sababi ariza topshirish komissiya haqi (appli-cation fee) juda yuqori bo'lgan bo'lsa, qaysila-rigadir shunchaki topshirgim kelmadi. Men o'qib kelgan GW Traktenberg siyosat maktabi ham eng nufuzlilaridan edi va unga kirolishim-ga ko'p ham ishonmagandim. Sababi esa men yozgan esseda edi. Intiq kutib, essenini yozish-ga kelganda hayotimda ba'zi ko'ngilsizliklar sabab diqqatni jamlay olmaganman va topshi-rib yuborgan talqinim qayta tekshirilmagani edi ("proofread" qilinmagan). Bundan tashqa-ri IELTS kunini belgilaganimda aksiga olib bo'-lim boshlig'i betob, bo'lim boshlig'i o'rinbosa-ri boshqa ishga o'tib ketgandi va bo'limda mendan boshqa xodim yo'q edi. Imtihonga tayyorlanishga yetarli vaqtim bo'lmay buning ustiga vaqtdan yutish uchun birinchi marta kompyuterdagi versiyasini (CD) topshirgan-man va natijam 7 bo'lib qolgan. Bu esa kirish uchun minimum edi. Qisqasi, hammasi birla-

shib umidni to'liq uzgandim. Bahorga kelib xatlar kela boshladi. Shulardan biri GWdan edi. Avvaliga jiddiy qaramadim, ha yaxshi ki-ribman deb qo'ydim. Chunki ketmoqchimas-dim. Keyingi siklga bemalolroq tayyorlanib ko'prog'iga topshirmoqchi edim. Chunki ariza topshirish jarayonida ko'plab nyuanslarni bilib olgandim. Uydagilarga aytganimda, yaxshi bo'libdi, qoldirma o'qib kel, deyishdi. Keyin universitetga xat yozdim, man o'qishga qaror qildim, kontraktimni qanday moliyalashtirsam bo'ladi deb. Ular ehtiyojga asoslangan grant-ga (need based scholarship) topshirib ko'r deyishdi. Ularga yozsam ariza topshirish mud-dati o'tgan ekan. Bu, albatta, xafa qildi. Shun-da Fulbraytni o'yladim. Keyin o'zimizning "El-yurt umidi" ham moliyalashtirardi, lekin staj minimumi talabi bor edi deb, ustavini o'qib chiqdim. Xursand qilgani o'sha talab bir oy ol-din yengillashtirilgan ekan. Keyin ariza topshi-rib ko'rishga qaror qildim. Bunda Inha univer-siteti rahbariyatidan doimiy qo'llab-quvvatlash olib turdim va barcha sinov hamda imtihonlar-dan o'tib, e'lon qilinganiga ko'ra, 4 ming kishi-lik raqobatda 80 kishi stipendiant deb e'tirof etildi, ular orasida men ham bor edim. O'qish davriga kelsak juda zo'r, kutganimdan ham a'lo darajadagi sifat guvohi bo'ldim.







— AQSH oliy ta'lim tizimining qaysi jihatlari sizga ma'qul bo'ldi?

– Men ta'lim olishda ikki xil bosqichni boshdan kechirdim: O'zbekistonda bakalavr, AQShda esa magistratura. To'g'risi, bu ikki bosqichni to'g'ridan-to'g'ri solishtirish to'liq adolatli bo'lmasligi mumkin — sababi, bakalavr va magistratura darajalari o'z missiyasi, o'quv yuklamasi va akademik erkinlik darajasi bo'yicha keskin farq qiladi. Ammo umumiy akademik muhit va yondashuvlar nuqtayi nazaridan tafovutlarni ko'rsatish mumkin. Yana

bir muhim jihat: O'zbekiston bakalavriyatidagi tajribam bugungi kunda amal qilayotgan yangilangan tizimdan biroz farq qiladi. Bilishimcha, baholash usullari, fanlar yuklamasi va o'quv rejasi o'zgargan. Shunga qaramay, akademik yondashuvdagi asosiy farqlarni shaxsan kuzatganim asosida tahlil qila olaman. AQShdagi bakalavr bosqichi ham, asosan, qat'iy rejim asosida tashkil etiladi: har kuni darslar, majburiy fanlar, topshiriqlar va vaqtinchalik



cheklovlar mavjud. Ammo bu tizimda talabaning individual ehtiyojlariga moslashish imkoniyati mavjud. Masalan, muayyan bir fanni turli professorlar turli kun va vaqtlarda o'tishadi. Talaba, o'zining kundalik mashg'ulotlarini hisobga olgan holda, o'zi uchun qulay grafikni tuzishi mumkin. Amalda bu har doim ham mukammal ishlamasligi mumkin, lekin tamoyilning o'zi talabaning tanlov erkinligini oshiradi. Magistratura bosqichida esa akademik erkinlik yanada kengroq. Majburiy fanlar soni kamroq bo'lgani bois, bir semestrlik yuklamani hatto haftaning faqat bir yoki ikki kuniga joylashtirish imkoni mavjud. Masalan, men o'qigan universitetda MBA dasturi aynan ishlovchi talabalarini hisobga olgan holda tuzilgan: birinchi kursda darslar asosan shanba kuni, ikkinchi kursda esa payshanba-juma kunlari kechki soat 7 dan keyin o'tiladi. Bunday yondashuvlar, albatta, dastur turi, yo'nalish (aniq yoki gumanitar fanlar), universitet siyosati kabi omillarga bog'liq. AQShdagi eng sezilarli farqlardan biri — ta'lim jarayoniga bo'lgan ikki tomonlama yondashuv. Darslar professorlar tomonidan emas, aynan professor va talabalar tomonidan birgalikda olib boriladigan o'zaro hamkorlik muhiti sifatida tashkil etiladi. Deyarli barcha professorlar dars boshida syllabus – o'quv dasturini talabalar bilan birga muhokama qilishadi, kerak bo'lsa, qayta ko'rib chiqishga tayyor bo'lishadi. Eng e'tiborlisi, ular o'z bilimlariga qanchalik ishonsa ham, fikrlarini mutlaq haqiqat sifatida singdirishga urinmaydilar. Bilmaydigan yoki ishonchli ma'lumotga ega bo'lmagan holatda ochiq tan olishadi. Shuningdek, talabalar tomonidan bildirilgan har qanday konstruk-

tiv fikr yoki e'tiroz hurmat bilan qabul qilinadi. Professorlar tomonidan hatto darsdan keyin fikr almashish uchun kofe yoki choy atrofida suhbatga taklif etish odatiy hol. Bunday ochiqlik va hurmat muhitida o'qish jarayoni nafaqat samarali, balki ilhomlantiruvchi tus oladi. Uchinchi muhim farq — o'qituvchilarning har bir talaba bilan alohida ishlashga tayyorligidir. Kimdir darslarni qoldirayotgan yoki orqada qolayotgan bo'lsa, ular befarq qolmaydi. Zarurat tug'ilganda bepul qo'shimcha darslar tashkil etiladi, maslahatlar beriladi, individual yondashuv yo'lga qo'yiladi. Bu esa talaba uchun kuchli motivatsiya manbaiga aylanadi. To'rtinchi farq, menimcha, eng ta'sirli jihat: talabalarga voyaga yetgan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan mustaqil shaxs sifatida yondashiladi. Hech kim sizni tekshiruvchi yoki kuzatuvchi sifatida ustringizdan nazorat olib bormaydi. Siz istasangiz — o'qiysiz, istamasangiz — alday-siz. Biroq sizga bo'lgan ishonchning o'zi halollik va mas'uliyatga undaydi. Masalan, agar siz uchun eng muhim narsa baho bo'lsa, buni ochiq aytishingiz yoki harakatlaringiz orqali namoyon qilishingiz mumkin. Professor buni sezsa, hech qanday qarshilik ko'rsatmay, sizga o'sha bahoni qo'yib beradi. Ammo ta'lim muhitida shakllangan o'zaro hurmat va ishonch sizni o'zingizni aldashdan tiyadi. Men shaxsan bu munosabatni his qilgan paytdan boshlab, baho uchun emas, bilim uchun o'qishga qaror qilganman — bu qarorni ta'limning ilk semestridanoq ongli ravishda qabul qilganman. Avval baho uchun o'qiganman demoqchimasman, lekin yuqori baho – o'qishga undovchi faktorlardan bo'lgan.

**— Dunyo talabalari bilan bellashuv sizga qanday xulosalar bergan?
Amerikaga ketgan Nurshod Norqulov va O'zbekistonga qaytgan
Nurshod Norqulovda nimalar o'zgardi?**

— Men tahsil olgan magistratura dasturida talabalar tarkibining 80 foizdan ortig'i AQSh fuqarolari edi. Esimda, ilk bor statistikaga oid darsga kirganimda, professorimiz o'zining tanishtiruv taqdimotida xalqaro talabalar uchun alohida slayd ajratgan edi. Slaydda jahon xaritasi tasvirlangan bo'lib, unda Gaiti, Gana, Tayland, Xitoy va O'zbekiston davlatlari belgilangan edi. Professor, meni alohida e'tirof etib, ismimni aytdi va kelgan mamlakatim haqida asosiy ma'lumotlarni eslab, talabalar orasida meni topib, tanishtirgan, vaholanki bu professor bilan avval hech qachon shaxsan ko'rishmaganman. Bu holat meni hayratga soldi va chuqur hurmat muhitini his qildim. Shu orqali biz dasturda Gaitidan ikki nafar, qolgan davlatlardan esa bittadan xorijiy talaba qatnashayotganini bilib oldik. Akademik raqobat darajasi nihoyatda kuchli edi. Mendan va ganalik kursdoshimdan tashqari barcha xorijiy talabalar bakalavr bosqichini AQSh yoki Kanadada tamomlagan, ya'ni oliy ta'limning asosiy qismini ingliz tilida olgan edilar. Ganalik kursdoshim uchun ingliz tili ona tili bo'lgani bois, u til borasida mutlaqo erkin edi. Dastlabki haftalarda menda til va madaniy moslashuv bo'yicha biroz bosim sezildi. Garchi O'zbekistonda ham ingliz tilidan qiynalmasam-da, AQShga borgach, og'zaki muloqotda tezlik, talaffuz va aksent masalalarida o'zimni ancha charxlashimga to'g'ri keldi. Ammo taxminan bir oydan so'ng, bu muhitga to'liq moslashdim. Darslarda til borasida hech

qanday muammo bo'lmadi, lekin norasmiy muloqotda tajriba orttirishim zarur bo'ldi. AQShga ketishimdan avvalgi holatim bilan qaytganimdagi holatimni solishtirsam, o'zimda katta o'zgarishlarni sezdim. Avvalo, haqiqiy sifatli ta'lim qanday bo'lishi kerakligini chuqur his qildim. Bizda keng qo'llaniladigan "Yetti o'lchab, bir kes" degan maqolning mazmunini amerikaliklar amaliy hayotda yanada chuqurroq anglab, unga amal qilishlarini kuzatdim. Rejalashtirish, tahlil, vaqtni qadrlash — bu yerda har bir ish ushbu tamoyillar asosida quriladi. AQShda o'rganigan nazariy bilim muqarrar ravishda amaliyotga bog'langan edi. Faqatgina darsni o'rganish emas, balki uni hayotga tatbiq etish hamda real loyihalarda sinovdan o'tkazish mashq qilindi. Natijada, men bu ta'limdan faqat nazariy asoslar bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan qaytdim. Bundan tashqari, vaqtni to'g'ri taqsimlash va uning qadriga yetish madaniyatini ham o'zlashtirdim. AQShda hayot kechirgan davomida nafaqat ta'lim tizimi, balki uning madaniy muhitini, ijtimoiy hayotidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ham kuzatdim. Har bir ijtimoiy tuzilma yoki madaniy hodisani tanqidiy ko'z bilan o'rganishga harakat qildim. Eng asosiysi — men o'zimni o'stira oldim. Shaxsiy, akademik va kasbiy jihatdan o'zgarganligimni, o'z oldimga qo'ygan maqsadlar sari dadilroq harakat qila boshlaganimni his qildim. Ushbu ta'lim tajribasi hayotimdagi eng muhim bosqichlardan biriga aylandi.



— Talabalarga yaratilgan sharoitlar, loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tizimi haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

— AQShdagi magistratura dasturimda talabalar uchun yaratilgan qo'llab-quvvatlovchi akademik tizim meni chuqur hayratga soldi. Har bir talaba uchun shaxsiy akademik konsultant biriktirilgan bo'lib, u bilan deyarli istalgan masalada maslahatlashish mumkin edi — o'quv rejasini tuzishdan tortib, turar joy yoki moliyaviy savollargacha. Bundan tashqari, men o'qigan universitetda karyera xizmatidan umrbod foydalanish huquqi taqdim etiladi. Bu xizmat orqali bitiruvdan keyin ham mehnat faoliyati, ish joyini tanlash, biznes yuritish, rezyume tayyorlash, intervyuga tayyorgarlik yoki ish beruvchilar bilan aloqaga chiqish bo'yicha professional maslahatlar olish imkoniyati mavjud. Karyera markazi xodimlari talabalarni o'z sohasida faoliyat

yuritayotgan avvalgi bitiruvchilar bilan bog'lab berishga harakat qilishadi. Shu kungacha ham har ikki haftada bo'sh ish o'rinlari, stajirovka va boshqa imkoniyatlar haqida e-mail xabarlar muntazam kelib turadi. O'quv jarayonida zarur bo'lgan barcha asosiy elektron platformalar, jumladan, Microsoft Office dasturlari, Adobe to'plami hamda boshqa muhim servislar — talabalarga premium versiyada bepul taqdim etiladi. Bu nafaqat dars jarayonini yengillashtiradi, balki zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Yana bir e'tiborga molik jihat — universitetning har bir professori, ma'muriy xodimi, hattoki dekani-gacha konsultatsiya vaqti belgilagan bo'lib, talabalar ular bilan erkin uchrashib, turli masala-

larni muhokama qilishi mumkin. Ta'kidlash joiz, AQShdagi "dekan" lavozimi ko'pincha bizdagi universitet "rektor"iga teng darajadagi vakolatga ega. O'qishim davomida Jorj Vashington universiteti bilan bir qatorda Jorjtaun universitetida ham darslarga qatnashganman. Qiziq bir hodisani eslashim joiz, shunday vaqt bo'lganki, semestr boshlanishidan oldin tanlagan fanlarim sabab, Jorj Vashington universitetidagi fanim tugaganidan keyin Jorjtaundagi darsgacha atigi 15 daqiqa vaqt qolgan. Shunda akademik konsultantim o'zi universitet avtomobilini chaqirib, meni darsga yetkazib qo'yish taklifini ber-

gandi. Keyinchalik, men fan jadvalini o'zgartirib, muammoni hal qilganman. Shuningdek, ikkinchi semestr oxirida yozgi semestr fanlariga yozilgan edim. Biroq o'sha paytda fondga yozgi semestr to'lovlariga to'g'ri kelmagani uchun u fanlardan chiqib ketdim. Uchinchi semestr boshida esa tizimdagi texnik xato tufayli yozgi fanlardan biri hisobimda hanuz saqlanib qolgan va uning uchun to'lov ham chiqarilgan edi. Bu holat yuzasidan akademik konsultantim va dekan shaxsan aralashib, buxgalteriyaga mening nomimdan murojaat qilib, fanni o'chirtirib berishdi.

— Amerika ta'limidan kutgan barcha kutilmalaringiz o'z tasdig'ini topdimi?

— AQShdagi o'qish tajribam davomida men ta'limni oddiygina akademik majburiyat emas, balki yoqimli, maqsadli va hayotiy o'sishga xizmat qiluvchi mashg'ulot sifatida qabul qilish mumkinligini chuqur his qildim. Har bir dars, har bir muloqot, har bir amaliy topshiriq — bu faqat baho olish uchun emas, balki shaxsiy va intellektual rivojlanish uchun xizmat qiladi. Ta'lim bu yerda zerikarli emas, aksincha ilhomlantiruvchi jarayon sifatida tashkil etilgan. Ammo, har qanday tizimda bo'lgani kabi AQSh oliy ta'limida ham o'ziga xos kamchilik va muammolar mavjud. Eng asosiy jihatlardan biri — bu ta'lim tizimining tijoratlashtirilganligi. Boshqacha aytganda, AQShda oliy ta'lim tizimi nafaqat ijtimoiy xizmat, balki katta biznesga aylangan soha sifatida ham qaraladi. Aksariyat nufuzli oliy o'quv yurtlari — xususiy muassalar bo'lib, ular o'z faoliyatida foyda ko'zlashi tabiiy hol hisoblanadi. Men tahsil olgan univer-

sitet misolida oladigan bo'lsak, u Vashington shahridagi eng yirik oliygoh hisoblanadi — ya'ni talabalar soni bo'yicha yetakchi. Shuningdek, o'zim tahsil olgan dastur mamlakatdagi TOP-10likka kiruvchi yo'nalish bo'lsa-da, universitetning umumiy reytingi TOP-100 talikka kirmaydi. Bunga sabab — universitetda ba'zi yo'nalishlarning faqat tijorat maqsadida ochilishi. Ushbu dasturlar o'qishga kirish uchun yuqori darajadagi tanlov talab qilmaydi. Aksariyat hollarda yengilroq tanlovdan o'tasiz, o'qish tanlovini qilasiz va shunchaki oliy ta'limli bo'lib chiqasiz. Albatta, bu holat butun ta'lim tizimiga umumlashtirilmasligi kerak. Chunki AQShda yuksak sifatli, kuchli raqobatga asoslangan, jahon miqyosida tan olingan o'quv dasturlar juda ko'p. Lekin xususiy universitetlar tarmog'ining ko'pligi, baholashda va qabulda erkinlik darajasining turlicha bo'lishi — tizimda sifat va adolatga ta'sir qiluvchi omillardan hisoblanadi.

— Sizdan o'qish shart bo'lgan kitob tavsiyasi...

— Birinchidan, men bir martadan o'qilgan o'nta kitobdan ko'ra, bir kitobni o'n marta o'qishni afzal ko'raman. Chunki har safar kitobni qayta o'qiganda, muallifning fikri va g'oyasini yangidan kashf etish imkoni paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, imkon boricha kitoblarni asl tilida o'qish lozim. Tarjima qilingan kitobni o'qish tushunarli bo'lsa-da, bu holat qisman kino tasvirlarini tomosha qilishga o'xshaydi.

Chunki tarjimon ham kinorejissyor kabi asarning go'zalligi va ma'nosini muallifnikidan biroz farq qilgan holda talqin qilishi mumkin.

Uchinchidan, kitobning yaxshi yoki foydali ekanligini, aksincha yomon yoki zararli bo'lishini aniqlash uchun avval uni o'qib chiqish kerak. Ayniqsa, badiiy adabiyotlarda har kimga bir xil yoqadigan asarni topish qiyin. Shuning uchun tavsiyalarni berishda men ko'proq falsafiy va tarixiy asarlarga urg'u berishni ma'qul ko'raman.

— O'zbekiston axborot texnologiyalari yo'nalishida berilayotgan oliy ta'limda nima o'zgartirilishi kerak?

— O'zbekistonda axborot texnologiyalari yo'nalishida oliy ta'lim olmaganman. Biroq sohada zarur bo'lgan kodlash tillari, ma'lumotlar ilmi va tahlilini mustaqil o'rganaganman. Shu bilan birga, oliy ta'lim va AQSHdagi dasturim davomida sohadagi

umumiy bir salbiy jihatning oldi olinishi zarur deb hisoblayman. Bu — haqiqiy ishlaydigan ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish (R&D) markazlarini ko'paytirish, ta'lim jarayoni bilan amaliyotni maksimal darajada uyg'un va parallel olib borishdir.

— Qachon ta'lim sifatli bo'ladi?

— Yuqoridagi fikrlarim davomida aytmoqchimanki, haqiqiy o'rganish muhiti yaratilganda, ya'ni o'qituvchilar imtihonlarni talabaga bilim berish vositasi sifatida ko'rib, shu maqsadga xizmat qiladigan bo'lsa, amaliyot

bilan uyg'unlikda, yangilikka doim ochiq bo'lsa, oliy ta'limga bizdagidek faqat diplom sifatida emas, balki rivojlangan davlatlardagi kabi daraja sifatida qaralsa, ta'limga bo'lgan munosabat o'zgaradi va sifatli ta'lim shakllanadi.

— Mazmunli suhbat uchun rahmat!

Sadoqat MAXSUMOVA
suhbatlashdi.

O'zbekiston oliy ta'limi xalqaro standartlarga javob beradimi?



Dato' Sri Dr. Daing Mohd Nasir bin Daing Ibrahim,
professor

Bugungi globallashtirish dunyoda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun dolzarb strategik yo'nalish sifatida maydonga chiqmoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari xalqaro akkreditatsiya tizimlari, kredit-modul o'qitish uslubi, chet el universitetlari bilan qo'shma dasturlar kabi yondashuvlarni joriy etish orqali xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalashishda faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayon murakkab, ko'p qirrali bo'lib, amaliyotda yechimini kutayotgan bir qator tizimli muammolarni ham o'z ichiga olmoqda. Ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishning real holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash maqsadida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritgan xorijlik mutaxassis — professor Dato' Sri Dr. Daing Mohd Nasir bin Daing Ibrahim — Emeritus Professor unvoni bilan sharaflangan, 2023-2024-o'quv yilida OXUS University (Toshkent) rektori bilan suhbatlashdik.

— Sizning fikringizcha, O'zbekistonning oliy ta'lim dasturlari xalqaro standartlarga qanchalik mos keladi?

— O'zbekistonning oliy ta'lim tizimi xalqaro standartlarga moslashish yo'lida muhim qadamlar qo'yimoqda. Ammo hal qilinishi lozim masalalar ham yo'q emas. Xususan, laboratoriyalar, kutubxonalar va zamonaviy texnologiyalar tanqisligini hal qilish ustida ishlanmoqda. So'nggi yillarda o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini nazorat qilish va oliy ta'limga kengroq imkoniyatlar yaratishga qaratilgan islohotlar orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda. Quyida bu boradagi asosiy jihatlar yoritib beriladi.

Muassasalar va tuzilma: O'zbekistonda universitetlar, institutlar va akademiyalar kabi turli xil oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi. Ilmiy-tadqiqot yo'nalishida O'zbekiston Fanlar akademiyasi yetakchi hisoblanadi, universitetlar va institutlar esa ta'lim hamda ilmiy tadqiqotlarni birgalikda olib boruvchi muassasalar sifatida faoliyat yuritadi. Fakultet va kafedralar (bo'limlar) orqali tashkil etilgan bu tizimda sovet va g'arbiy ta'lim modellarining uyg'unlashganini ko'rish mumkin.

O'quv dasturlari va daraja tizimidagi islohotlar: O'zbekistonning xalqaro standartlarga moslashishida asosiy o'rin tutayotgan jihatlardan biri g'arbiy daraja tizimining joriy etilishi bo'ldi. Sobiq sovet besh yillik ta'lim tizimidan xalqaro miqyosda tan olinadigan bakalavr va magistr dasturlariga o'tish jarayoni deyarli yakunlandi. Bu o'zgarish O'zbekiston diplomlarining xalqaro miqyosda tan olinishi uchun muhim qadam hisoblanadi. Biroq ayrim soha-

larda, jumladan, tibbiyot yo'nalishida, ta'lim davomiyligi hali ham mutaxassislikka qarab farqlanmoqda.

Xalqaro hamkorliklar va raqamli tashabbuslar: O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari xalqaro hamkorliklarda tobora faol ishtirok etmoqda. Bunday hamkorliklar bilim almashish va xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, Belgiya bilan hamkorlikda olib borilayotgan LIBAN-TA loyihasi orqali O'zbekiston ta'lim tizimiga elektron kutubxonalar va zamonaviy o'quv resurslari joriy qilinmoqda. Bu esa axborot va texnologiyalarga cheklangan imkoniyatlar muammosini bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yangi tashkil etilgan xususiy Oxus universiteti xalqaro hamkorlikka faol kirishib, Malayziyaning davlat va xususiy universitetlari bilan qo'shma va franchayzing dasturlarini amalga oshirmoqda. USM, UPM, UCSI kabi yetakchi Malayziya universitetlari bilan hamkorlik bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Kelajakdagi yo'nalishlar: O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh qilishga sodiqligini namoyon etmoqda. Xususiy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ta'lim sohasida tijoratlashuv hamda professor-o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish bu jarayonni tezlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli infrazuzilmaga doimiy investitsiya kiritish va xalqaro hamkorliklarni kuchaytirish O'zbekistonning global ta'lim bozorida o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xorijiy

talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilarni jalb etish orqali ta'lim muhitini xalqaro tajriba bilan boyitish mumkin. Buni esa ularning mam-

lakatga va ta'lim tizimiga oson moslashishini ta'minlovchi tizimlar yordamida amalga oshirish lozim bo'ladi.

— Xalqaro mutaxassis sifatida o'zbekistonlik talabalarning ta'limga bo'lgan munosabati va tayyorgarligini qanday baholaysiz?

— O'zbekistonlik talabalarning ta'limga bo'lgan munosabati va tayyorgarligini baholashda akademik, tadbirkorlik va ijtimoiy-madaniy omillar o'zaro uzviy bog'liq ekani kuzatiladi. Aksariyat talabalar tadbirkorlik yo'nalishiga ijobiy munosabat bildiradi. Bunga ta'lim tizimida tadbirkorlik va biznes sohasiga e'tibor kuchayib borayotgani ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ularning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan intilishlari va munosabatlarini shakllantirib, kelajakdagi faoliyatlariga faol yondashishlarini ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlikka ega, o'qish jadvalida moslashuvchanlikka erishgan hamda xorijiy tillarni biladigan talabalar, odatda, o'quv jarayonida yuqori natijalarni ko'rsatmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqaro hamkorliklar, xususan, transmilliy oliy ta'lim (TNE) yo'nalishi orqali talabalar dunyoqarashi kengaymoqda. Bunday xalqaro tajriba ularning ta'limga va global hamjamiyatdagi o'z o'rniga

bo'lgan qarashlarini o'zgartirib, ularni an'anaviy chegaralardan tashqarida fikrlashga undatmoqda. Ularning ushbu xalqaro yo'nalishga yo'naltirilganligi va tadbirkorlik ruhiyati yangi imkoniyatlarga ochiqqligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ularning xalqaro standartlarga to'liq mos kelishi uchun ayrim yo'nalishlarda qo'shimcha qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish ishlari talab etiladi.

Oxus universitetida bizning asosiy maqsadimiz – kelajak kasblariga tayyor va tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bitiruvchilarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun biz hamkorlik, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, global fikrlash va raqamli savodxonlik kabi hozirgi bozor talab qilayotgan muhim ko'nikmalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilmoqdamiz. To'rtinchi sanoat inqilobi (IR 4.0) sharoitida bu ko'nikmalar xalqaro iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur hisoblanadi.



— Mamlakatingiz oliy ta’lim tizimida qanday muvaffaqiyatli tajribalar mavjud va ularning qaysi birlari O‘zbekistonda qo‘llanilishi mumkin, deb hisoblaysiz?


— Malayziya tajribasi oliy ta’lim sohasida o‘rganish va qo‘llash uchun yaxshi namuna-dir. Malayziyaning oliy ta’lim tizimi O‘zbekiston uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan qator samarali yechim va yondashuvlarni taqdim etadi. Ushbu tajribani o‘zlashtirish orqali O‘zbekiston o‘z oliy ta’lim tizimini jahon miqyosida raqobatbardosh va dinamik tizimga aylantirish yo‘lida yanada tezroq rivojlana oladi.

Malayziyaning oliy ta’limni transformatsiya qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan konsepsiyasi

va “yo‘l xaritasi” O‘zbekiston uchun ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Malayziya ta’lim tizimini kuchaytirish va takomillash-tirishga qaratilgan bosqichma-bosqich yon-dashuv asosida ajratilgan ustuvor yo‘nalishlar O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin.

Bu yondashuv O‘zbekistonning ta’lim sohasida tizimli islohotlar olib borishiga, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va samarali rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishiga yordam beradi.

Malayziya oliy ta’limi – transformatsiya konsepsiyasi



1-rasm. Malayziya oliy ta’limi – transformatsiya konsepsiyasi

Inson kapitalini rivojlantirish: Malayziya transformatsiya konsepsiyasining markazida “Birinch darajali tafakkur”ga ega inson kapitalini shakllantirishga e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston ham mazkur yondashuvni qabul qilib, talaba, o‘qituvchi va rahbarlarda zamonaviy, global raqobatbardosh fikrlash tizimini shakllantirishga xizmat qiladigan strategiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Tashkiliy ustunlar va muhim dasturlar: Malayziya transformatsiya konsepsiyasi barqaror rivojlanish uchun asos bo‘ladigan tashkiliy ustunlarga tayangan. Bular bilan birga, tadqiqotlar, innovatsiyalar va global raqobatbardoshlik kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab oluvchi dasturlar (critical agenda) amalga oshirilgan. O‘zbekiston ham shunga o‘xshash institutsional tizimlar va dasturlarni joriy etish orqali oliy ta’limdagi islohotlarni yanada samarali davom ettirishi mumkin.

Muhim kun tartibi: Tizimli o‘zgarishlarga turtki berish

“Muhim kun tartibi – Tizimli o‘zgarishlarga turtki berish” nomi ostidagi ushbu dasturlar 2007–2010 yillardagi transformatsiya rejasini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 1-rasmda tasvirlangan.

Quyida Malayziya amaliyotiga asoslangan bosqichma-bosqich strategiyalar va ularni

O‘zbekiston sharoitida qanday qo‘llash mumkinligi keltirilgan:

1-bosqich: Asos yaratish

Siyosatlarni ishlab chiqish va strategik yo‘nalishni belgilashga asoslangan. O‘zbekiston ham o‘z islohotlarini boshlash uchun muhim siyosiy qarorlarni qabul qilish va boshlang‘ich tashabbuslarni amalga oshirish orqali poydevor yaratishi kerak.

2-bosqich: Kuchaytirish va takomillashtirish


O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirish uchun xalqaro hamkorliklarni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish va sifatni ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirishga e’tibor qaratishi mumkin.

3-bosqich: Mukammallikka intilish

Malayziya yondashuvini qabul qilib, O‘zbekiston o‘z universitetlarining xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashini va zamonaviy ko‘nikmalarga ega raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni maqsad qilib qo‘yishi mumkin.

4-bosqich: Shon-shuhrat va barqarorlik

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining xalqaro miqyosda tan olinishi va mamlakat ravnaqi hamda milliy g‘urur manbaiga aylanishini ta’minlash bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani shakllantirishi mumkin.



— Innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar oliy ta’limda qanday o’rin tutishi kerak, deb hisoblaysiz?

— Innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar oliy ta’limda akademik mukammallikni ta’minlash, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish hamda ijtimoiy muammolarga yechim topishda muhim rol o’ynaydi. Tadqiqotga yo’naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirish orqali universitetlar bilim yaratish sohasida yetakchi bo’lib, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo’shishi va talabalarning kelajakdagi sinovlarga tayyor bo’lishini ta’minlashi mumkin.

Fanlararo hamkorlik va ilmiy tadqiqotlarning amaliy natijalari orqali oliy ta’lim muassasalari o’z dolzarbligini va ta’sirchanligini saqlab qoladi. Umuman olganda, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar ta’lim muassasalarining

uzluksiz rivojlanishini ta’minlab, jamiyat rivojiga bevosita xizmat qiladi.

Malayziyada universitetlar uch toifaga ajratilgan:

- Kompleks universitetlar
- Tadqiqot universitetlari
- Ixtisoslashgan universitetlar

Ular orasida beshta davlat tadqiqot universiteti ajralib turadi. Bu universitetlar ilm-fan taraqqiyotini ta’minlash, fanlararo hamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo’shishda muhim rol o’ynaydi.

O’zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy strategiyalarni amalga oshirish tavsiya qilinadi:





**KANTOR PUSAT ADMINISTRASI
UNIVERSITAS SYIAH K**



JALA

GENERAL DIRECTOR



INNOVATION

- **Xalqaro hamkorlik (Internationalization):** Xalqaro universitetlar bilan hamkorlik, qo'shma diplom dasturlari va talabalar almashinuvi orqali raqobatbardoshlikni oshirish. Xorijiy talabalar va professor-o'qituvchilarni jalb qilish uchun qulay va moslashuvchan tartiblarni joriy etish.

- **Ta'lim sifatini ta'minlash (Quality Assurance):** Xalqaro standartlarga mos milliy akkreditatsiya tashkilotini tuzish va ta'lim sifatini muntazam baholab borish tizimini yo'lga qo'yish.

- **Xususiy sektorni rivojlantirish (Private Sector Growth):** Xususiy universitetlarning ta'lim dasturlarini kengaytirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali davlat muassasalariga tushayotgan yukni kamaytirish.

- **Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar (Research and Innovation):** Tadqiqotga yo'naltirilgan universitetlarga investitsiyalar kiritish hamda sanoat va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekistonni innovatsiyalar yetakchisiga aylantirish.

- **Kasbiy va texnik ta'lim (TVET):** TVET dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali bitiruvchilarni zarur ko'nikmalar bilan ta'minlash va yoshlardagi ishsizlik darajasini kamaytirish.

- **Uzluksiz ta'lim (Lifelong Learning):** Ishlayotgan kattalar uchun moslashuvchan ta'lim yo'llarini joriy etish orqali ularning malakasini oshirish va mehnat resurslarini rivojlantirish.

Ushbu strategiyalarni izchil amalga oshirish O'zbekistonning oliy ta'lim tizimini zamonaviy iqtisodiy talablar va xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston oliy ta'limini rivojlantirishda hukumat va milliy rahbariyat aniq va maqsadli milliy strategik reja ishlab chiqish orqali hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: moliyalashtirish va investitsiyalarni ko'paytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy islohotlar va sifatni ta'minlash uchun milliy akkreditatsiya tashkilotini yaratish.

Bundan tashqari, hukumat ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar uchun grantlar ajratishi, texnik va kasbiy ta'limni qo'llab-quvvatlashi, hamda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish uchun imtiyozlar taqdim etishi kerak. Raqamli infratuzilmaga investitsiya kiritish va uzluksiz ta'lim tashabbuslarini ilgari surish ham O'zbekiston oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini va global moslashuvchanligini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Zumrad ESHMIRZAYEVA
suhbatlashdi.



Abdurahim NASIROV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekistonda fransuz tilining o'qitilishi

Globalizatsiya jarayonlari ta'sirida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Yevropa ittifoq davlatlari, xususan, Fransiya bilan bo'layotgan madaniy, iqtisodiy va ta'lim sohalaridagi aloqalar O'zbekistonda fransuz tilining o'rganilishi va o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilishini taqozo qilmoqda. Mustaqillik yillarida Respublikamizda xorijiy tillarni, jumladan, fransuz tilini o'qitish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xorijiy tillarni o'qitish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlantirilmoqda. Bu borada bir qancha chora-tadbirlar belgilab olingan bo'lib, jumladan: 1) xorijiy tillarni eng yaxshi o'rgatgan maktablar uchun Prezident sovrini joriy qilish; 2) Qishloq joylarida xorijiy tillarni o'qitishni boshlagan tadbirkorlarga 50 million so'mgacha subsidiya berish; 3) C1 darajani qo'lga kiritgan o'qituvchilarga 50%gacha ustama berish; 4) xorijiy til bo'yicha sertifikatga ega bo'lganlarni attestatsiyadan ozod qilish va hokazo [O'zRes PQ-5117-sonli qarori, 2021]. Ushbu qaror fransuz tilining o'qitilishi uchun ham muhim huquqiy asosdir.

O'zbekistonda fransuz tili bir qator umumta'lim maktablar, akademik litseylar, shuningdek Oliy ta'lim muassasalarida birinchi yoki ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitiladi. Bugun fransuz tilini o'qitish nafaqat bir xorijiy tilni o'rganish, balki fransuz madaniyati, adabiyoti va ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirishga yo'l ochib bermoqda. O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi munosabatlar Amir Temur va Fransiya qirollari o'rtasidagi yozishmalardan boshlab 500 yildan ortiq tarixga ega. Zamonaviy kontekstda fransuz tili O'zbekiston uchun diplomatiya, fan, madaniyat va xalqaro hamkorlik tili sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Butun dunyo davlatlari bilan yaqin aloqada bo'layotgan Yangi O'zbekiston yoshlari uchun chet tillarini, bir yoki bir nechta chet tilini bilish keng imkoniyatlar kaliti hisoblanadi. Yurtimizda chet tillarini o'rganish darajasini yuqori bosqichga olib chiqish bo'yicha so'nggi yillarda misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirildi. Shu tillar qatorida fransuz tili ham chet tili sifatida, O'zbekistonda 70-80 yillardan buyon o'qitiladi.

Fransuz tili – hind yevropa tillari oilasi roman tillari guruhiga kiradi. Dunyoda 100 mln. dan ortiq aholi ushbu tilda gaplashadi. Fransiya, Belgiya, Shveytsariya, Kanada, Lyuksemburg, bir qator Afrika davlatlarida keng tarqalgan. BMTning rasmiy va ishchi tillaridan biri. Fransuz tilining ham bir qator lahjalari bor, masalan, frans-hozirgi fransuz tilining tarixiy negizi, shimoliy-Belgiyadagi normand, pikard, vallon va boshqalar, g'arbiy – anjuy, gallo, janubi-g'arbiy – puatevin, janubi-sharqiy – burgund, franskont, sharqiy – lotaringiya, shampän hamda frankprovansal.

Fransuz tili tarixi – gallroman (5–8-a. lar), eski fransuz (9–13-a. lar), o'rta fransuz (14–15-a. lar), ilk yangi fransuz (16-a.), yangi fransuzklassik (17–18-a. lar) va hoz. fransuz (19-a. dan) tarixiy davrlariga bo'linadi. O'rta asrlarga kelib umumfransuz yozma tili yuzaga kelgan, 1539-yilda davlatning rasmiy tili shakllanadi. 17-asrga kelib esa adabiy til me'yori barqarorlashadi. 20-asrda adabiy va og'zaki nutq o'rtasida sezilarli farq paydo bo'ladi.

Fransuz tilida ayrim harflarning o'qilmay qolishi til o'rganuvchilarda ko'p savol tug'diradi. Fransuz tili grammatikasida murakkab zamon, nisbatlar, fe'l sohasida 4 ta mayl, 3 nisbat va keng tarmoqli zamonlar shakllari, sifat va ravishda qiyosiy darajalarning ifodalanishi o'ziga xos murakkab. Leksikasida gallardanva franklar tillaridan saqlanib qolgan so'zlar mavjud. Fransuz tili rivojida adabiy lotin tili katta rol o'ynagan, ko'plab so'zlar, so'z yasaliş qoliplari, sintaktik tuzilmalar o'sha lotin tilidan o'zlashgan.

Bugungi kunda fransuz tilini o'rganish va o'rgatishga tili o'rganilayotgan davlatlar bilan xalqaro ikki yoki ko'p tomonlama munosabatlarning o'rnatilishi, til muhitining yaratilishi, o'qituvchi va talabalar uchun xorijiy malaka oshirish hamda stajirovkalar, fransuz tili sohiblari tomonidan dars mashg'ulotlarining olib borilishi, til bilish sertifikatlarini qo'lga kiritish kabi bir qator omillar o'zining salmoqli ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Fransuz tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil mart oyida Fransiya davlat tashrifi davomida ta'lim





va fan sohasida muhim bitimlar imzolangani munosabati bilan alohida dolzarblik kasb etdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi davomida Fransiya Prezidenti E.Makron bilan muzokaralar o'tkazildi, strategik sheriklik bo'yicha bitimlar imzolandi. 6,5 milliard yevrolik investitsiya loyihalari kelishildi. Prezident Faxriy legion ordeni bilan taqdirlandi. YUNESKO, Parij meri va Milliy majlis rahbarlari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Parijda bir ko'chaga "Samarqand" nomi berildi. Tashrif yakunida Prezident Toshkentga qaytdi [Prezident.uz, "O'zbekiston Prezidentining Fransiya davlat tashrifi yakunlandi", 2025]. Bu kabi voqealar ikki xalq o'rtasidagi do'stona aloqalarning mustahkamlanishi barobarida, O'zbekistonda fransuz tilining o'qitilishi va o'rganilishiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishda muhim turtki bo'lmoqda.

Shu bilan birga, fransuz tilining O'zbekistonda o'qitilishiga bo'lgan e'tibor nafaqat

siyosiy va iqtisodiy manfaatlar, balki madaniy-ma'naviy yaqinlik, ilmiy almashinuv va inson resurslarini rivojlantirish zaruratidan ham kelib chiqmoqda. O'zbekiston yoshlari orasida Fransiya ta'lim olish, turizm, tarjimonlik va xalqaro munosabatlar kabi sohalarda fransuz tilini puxta egallashga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Fransuz tilining jahon miqyosidagi nufuzi, BMT va YUNESKO kabi yirik xalqaro tashkilotlarning ish tillaridan biri ekani, ushbu tilni o'rganishni global maydonda raqobatbardosh kadr bo'lishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rsatmoqda. Shu bois, fransuz tilini o'qitishdagi yondashuvlar, metodika, o'qituvchi tayyorlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonda fransuz tilining o'qitilish tarixi, uning mustaqillikdan oldingi va keyingi bosqichlari, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik kontekstida qanday rivojlanib borayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek,



amaldagi muammolar va istiqbolli yoʻnalishlar ham ilmiy-nazariy va amaliy asosda koʻrib chiqiladi.

Ushbu maqolada fransuz tilining Oʻzbekistonda oʻqitilishi va oʻrganilishi jarayonlarini oʻrganishda ilmiy-tadqiqotning kompleks yondashuvi qoʻllanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy metodlar asosida olib borildi:

Huquqiy-hujjatli tahlil usuli: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Fransiya bilan imzolangan bitimlar, taʼlim sohasidagi rasmiy meʼyoriy hujjatlar (xususan, PQ-5117-sonli qaror, Ahdlashuv deklaratsiyasi, universitetlararo memorandumlar) asos qilib olindi. Ushbu manbalar fransuz tilining oʻqitilishi uchun davlat miqyosidagi institutsional va huquqiy asoslar mavjudligini koʻrsatadi.

Statistik tahlil: Taʼlimning barcha bosqichlaridagi raqamli maʼlumotlar (maktab, kollej, oliy taʼlim, malaka oshirish kurslari, Alliance Française markazlari) asosida fransuz tilini oʻrganayotganlar soni, tendensiyalar, hududiy qamrov va oʻzgarishlar oʻrganildi. Bu usul orqali fransuz tilining taʼlim tizimidagi real oʻrni aniqlab berildi.

Tizimli yondashuv: Fransuz tilini oʻqitish boʻyicha davlat siyosati, kadrlar tayyorlash, metodik bazaning rivoji, zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi, malaka oshirish tizimi, xalqaro loyihalar kabi omillar oʻzaro bogʻliq tizim sifatida qaraldi. Bu metod yordamida mavjud muammolar va istiqbolli yoʻnalishlar aniqlab chiqildi.

Amaliy kuzatuv va tajriba tahlili: Stajirovka dasturlari, yangi oʻquv-uslubiy majmualarning

joriy etilishi, fransuz tili bo'yicha tashkil etilayotgan mahalliy va xalqaro tadbirlar (seminar, trening, festival, til kurslari) amaliy tajriba sifatida baholandi.

Kontekstual tahlil: Prezident Sh.Mirziyoyevning 2025-yilgi Fransiyaga rasmiy tashrifi, imzolangan bitimlar, madaniy forumlar va universitetlararo kelishuvlar tahlil qilinib, fransuz tilining rivojlanishiga bevosita ijtimoiy-siyosiy kontekstdagi ta'siri o'rganildi.

Ta'limning barcha bosqichlarida fransuz tilini o'rganayotganlar soni 151 000 nafarni tashkil etadi [O'zbekiston Milliy Axborot agentligi, "Fransuz tili o'qituvchilari xalqaro ta'lim tajribalarini o'rganmoqda"]. Maktablarda fransuz tilini o'rganayotganlar ulushining sezilarli darajada kamayishi va ayni paytda oliy o'quv yurtlari va "Alliance Française" markazlarida o'rganayotganlar sonining o'sishi kuzatilmoqda.

Maktablarda:

- Ingliz tili: 10 017 maktab, 246 021 sinf, 6 230 026 o'quvchi;
- Nemis tili: 833 maktab, 8 202 sinf, 187 263 o'quvchi;
- Fransuz tili: 560 maktab, 5 245 sinf, 119 367 o'quvchi;
- Boshqa tillar: 46 maktab, 338 sinf, 9 858 o'quvchini tashkil etadi.

Fransuz tili Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi O'zbekistonning tarixiy va turistik markazlarida ko'proq o'rganiladi, bu turizm sohasi rivojlanishi bilan bog'liq. Ushbu tizim 2022-yil 22-noyabrda Parijda imzolangan O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi Ahdlashuv deklaratsiyasiga to'la muvofiqdir. Unga ko'ra, fransuz tilining O'zbekistonda o'qitilishini jadallash-tirishga oid ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Tomonlar fransuz tilini ixtisoslashtirilgan maktablarda keng joriy etish, Fransuz alyanslari faoliyatini qo'llab-quvvatlash (xususan, Toshkent va Samarqand shaharlarida) hamda kelgusida qo'shma oliy ta'lim loyihasini yo'lga qo'yishga intilish borasida o'zaro istak bildirganlar. Ushbu hujjat ikki davlat o'rtasidagi akademik va madaniy hamkorlikning muhim bosqichi sifatida qaraladi [O'z.Res. Tash.I.vazirligi va Fran.Res. Yevropa va Tashqi ishlar vaz. o'rtasidagi AHDLASHUV, 2023].

Oliy ta'lim muassasalarida 22000 dan ortiq talaba fransuz tilini o'rganmoqda. Eng katta kontingent O'zDJTUda, bu yerda fransuz tili 1949-yildan buyon o'qitiladi, bugungi kunda 2515 nafar talaba fransuz tilini o'rganmoqda, ulardan 459 nafari kunduzgi bo'limda, 168 nafari kechki bo'limda va 1888 nafari ikkinchi chet tili sifatida o'rganmoqda. O'qituvchilar soni 46 nafar, ularning 2 nafari Fransiyadan



taklif qilingan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 12 ta OTMDa fransuz tili bo'yicha mutaxassislar tayyorlamoqda. Mazkur oliy ta'lim muassasalari mamlakatda fransuz tilini o'qitish va unga bo'lgan qiziqishni oshirishda muhim rol o'ynamoqda:

1. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zDJTU) mamlakatda chet tillarini, xususan, fransuz tilini o'qitish bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. 1949-yildan buyon fransuz tili o'qitilib kelinayotgan bu universitetda hozirda bakalavriatda xorijiy til va adabiyoti, filologiya, tarjimonlik yo'nalishlarida, magistratura lingvistika va adabiyotshunoslik mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlab kelmoqda. 10 ga yaqin Frankofon, Fransiya, Belgiya, Kanada, Jazoir kabi davlatlarning OTMlari bilan fransuz tilini o'rganish yo'nalishida xalqaro hamkorliklarni yo'lga qo'ygan.

2. O'zbekiston Milliy universitetida fransuz tili asosan filologiya va tarjimonlik yo'nalishlarida o'qitiladi. Universitetda bu til bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, talabalar esa fransuz tilini nafaqat kommunikativ darajada, balki lingvistik va madaniy jihatdan ham chuqur o'zlashtirmoqda. Shuningdek, universitet Fransiya oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy-akademik hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan.

3. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida fransuz tili asosan filologiya yo'nalishida ikkinchi chet tili sifatida o'rgatiladi va bu yo'nalishda malakali o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda

4. Andijon davlat chet tillari universitetida fransuz tili bo'yicha alohida kafedra tashkil

etilgan bo'lib, u yerda talabalar nafaqat til, balki fransuz madaniyati va adabiyoti bilan ham tanishadilar.

5. Buxoro davlat universiteti fransuz tilini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interfaol usullardan keng foydalanmoqda. Bu yerda talabalar orasida tilni kasbiy faoliyatda qo'llashga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda.

6. Samarqand davlat chet tillari instituti esa til o'qitish metodikasi doimiy takomillashtirilib, xalqaro hamkorlik doirasida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, (7) Qarshi davlat universiteti (8), Termiz davlat universiteti (9), Farg'ona davlat universiteti (10), Urganch davlat universiteti (11), Jizzax davlat pedagogika universiteti (12), Namangan davlat universitetlarida ham fransuz tilini o'qitish bo'yicha alohida yo'nalishlar ochilgan bo'lib, ularning har birida sohaning yetuk mutaxassislari faoliyat olib bormoqda.

Toshkent, Samarqand va Buxoroda vakolatxonalari bo'lgan "Alliance Française" tarmog'i fransuz tilini tarqatishga katta hissa qo'shmoqda. Har yili 3000 dan ortiq kishi ushbu markazlarda fransuz tili kurslaridan o'tadi.

1. Maktabgacha ta'lim

O'zbekistonda 12 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida bepul fransuz tilini o'qitish yo'lga qo'yilmoqda. 2024-yil 14–15-oktabr kunlari Kokoro Lingua asoschisi Natali Lasslet Toshkentga tashrif buyurib, grant asosida fransuz tilini bepul o'qitish loyihasi doirasida maktabgacha ta'lim muassasalarini ko'zdan kechirdi va seminar o'tkazdi. Bu tashrif Pa-




rijda imzolangan kelishuv asosida amalga oshirildi. Kelishuvga ko'ra, bir yil davomida 12 ta MMTda 5–6 yoshli bolalarga fransuz tili bepul o'qitiladi [UzEdu Vazirlik yangiliklari, “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fransuz tili o'qitiladi”, 2025].

2. Umumiy o'rta ta'lim

Bugungi kunda fransuz tili respublika-ning 560 maktabida o'qitiladi, 5 245 sinfni va 119 367 nafar o'quvchini qamrab oladi. Af-suski, fransuz tili o'qitiladigan maktablar so-

ning qisqarishi tendensiyasi kuzatilmoqda: 2019-yilda ularning soni 1 187 ta edi, 2024-2025 o'quv yiliga kelib esa 560 taga qisqardi, bu esa 53 foizga kamayganini anglatadi.

Maktablarda fransuz tilini o'rganish bi-rinchi sinfdan boshlanadi. 1-sinfda haftasiga 1 soat, 2-4 sinflarda 2 soat ajratilgan, (68 so-atdan). 5-6 sinflarda 4 soatdan (136 soatdan), 7-10 sinflarda 3 soatdan (102 soat) va 11-sinf-da 2 soatdan (68 soat), jami haftasiga 29 soat o'qitiladi.



Zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarga o'tish alohida e'tiborga loyiq. Hozirgi vaqtda mahalliy mualliflar darsliklarini Fransiyaning Didier nashriyotining zamonaviy nashrlari bilan almashtirdi. Quyidagi o'quv-uslubiy majmualar darajaga qarab qo'llaniladi:

- A1 darajasi uchun “Passe-Passe” (1-4-sinflar)
- A2 darajasi uchun “Décibel” (5-8-sinflar)

• B1 darajasi uchun “L'atelier” (9-11-sinflar)

Ushbu majmualarga o'quvchilar uchun darsliklar, ish daftarlari, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar va multimedia materiallari kiradi, bu esa o'qitish sifatini sezilarli darajada oshiradi. O'qituvchilar malakasi muammosini hal qilish uchun Fransiya stajirovkalarni o'z ichiga olgan malaka oshirish tizimi faol rivojlantirilmoqda. 2024-yilda fransuz tili o'qituv-

chilarining 32 nafari kasbiy rivojlanish dasturi doirasida Fransiya ta'lim muassasalarida ikki haftalik stajirovkadan o'tdi.

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

Fransuz tili 46 ta kollej va kasb-hunar maktablarida o'qitiladi, u yerda 9 858 nafar o'quvchi tahsil oladi. Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha fransuz tilini kasbiy-yo'naltirilgan o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- Turizm va mehmonxona biznesi
- Axborot texnologiyalari
- Yengil sanoat va dizayn
- Tibbiyot
- Oshpazlik san'ati

Fransiyaning professional o'quv muassasalari bilan hamkorlik rivojlanmoqda. 2024-yilda O'zbekistonning uchta kolleji va Fransiyaning kasb-hunar litseylari o'rtasida "Oshpazlik san'ati" va "Turizm" yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashish, o'qituvchilar va talabalar uchun

stajirovkalar, shuningdek, qo'shma o'quv dasturlarini ishlab chiqishni nazarda tutuvchi bitimlar imzolandi.

4. Oliy ta'lim

Yuqorida ko'rsatilgan OTM fransuz tili bo'yicha mutaxassislarni bakalavr ta'limining ikki (uch) asosiy yo'nalishi bo'yicha tayyorlaydi:

- 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz tili)
- 60110900 – Chet tillari va adabiyoti (fransuz tili va adabiyoti)
- 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (fransuz tili)

Magistratura dasturlari mamlakatning 7 ta OTMda "Fransuz tili lingvistikasi" yo'nalishi bo'yicha taklif etiladi: O'zDJTU, O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti, Samarqand chet tillari instituti, Qarshi davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Namangan chet tillari instituti.

QUYIDAGI UNIVERSITETLAR FRANSUZ TILIDAN MUTAXASSISLAR TAYYORLAYDI



Bakalavriat dasturining tuzilishi to'rt yillik o'qish uchun 6 200 o'quv soatini o'z ichiga oladi, ulardan 2 616 soat – auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar), 4 584 soat esa talabalarning mustaqil ishlariga ajratilgan.

So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida fransuz tilini o'rganayotganlar:

- 2 000 talaba asosiy chet tili sifatida
- 9 000 talaba ikkinchi chet tili sifatida
- 11 000 talaba chet tili sifatida
- Jami 22 000 dan ortiq talaba

O'quv dasturlari muntazam ravishda xalqaro standartlarga muvofiq yangilanib boradi.

5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Fransuz filologiyasi sohasida ilmiy kadrlar tayyorlash mamlakatning yetakchi universitetlarida, avvalo, O'zDJTUda tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) tizimi orqali amalga oshiriladi.

Fransuz tili va adabiyoti sohasidagi doktorlik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Fransuz va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish
- Lingvokulturologik tadqiqotlar
- Fransuz tilini o'qitish metodikasi
- Tarjima nazariyasi va amaliyoti
- Adabiyotshunoslik

Frankofon mamlakatlar bilan ilmiy hamkorlik faol rivojlanmoqda. Har yili O'zbekistondan 5-7 nafar doktorant Fransiya, Belgiya va Shveysariya universitetlarida ilmiy stajirovkadan o'tadi. So'nggi uch yil davomida o'zbek olimlari tomonidan xalqaro retsenziyalana-

digan jurnallarda 120 dan ortiq ilmiy maqola chop etilgan.

6. Malaka oshirish

Fransuz tili o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimi ham davlat dasturlari, ham xalqaro loyihalarni o'z ichiga oladi. Har yili 150 ga yaqin maktab va oliy o'quv yurtlari fransuz tili o'qituvchilari Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish respublika markazida malaka oshirish kurslaridan o'tadi. Bundan tashqari 2024-yil iyun oyida 60 ga yaqin fransuz tili o'qituvchilari Fransiyaning Nitsa shahrida malaka o'tab qaytishdi. Malaka oshirish davomida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, til o'rganishda og'zaki nutq darajasini oshirish singari ko'nikmalar o'rganildi [Vazirlik yangiliklari "Ayni damda 60 nafar fransuz tili o'qituvchilari Fransiyaning Nitsa shahrida amaliyot o'tashmoqda", 2024].

So'nggi yillarda O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ta'limiy hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilib, fransuz tilini o'qitish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025-yilda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining (O'zDJTU) besh nafar professor-o'qituvchisiga Fransiya malaka oshirish uchun grantlar ajratilishi belgilandi. Bu tashabbus fransuz tilini o'qitishda xalqaro tajribalarni joriy qilish, xorijiy til o'qituvchilarining malakasini oshirish va o'zaro tajriba almashinuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu hamkorlik doirasida Fransiya yetakchi mutaxassislarni jalb etgan holda universitetda doimiy ravishda mahorat darslari (master-klasslar) o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu esa o'qituvchilarning didak-



Fransuzabon davlatlar bilan ilmiy hamkorlik faol rivojlanmoqda. Har yili O'zbekistondan 5-7 nafarga yaqin doktorant Fransiya, Belgiya, Shveysariya universitetlarida ilmiy amaliyot o'tamoqda. Oxirgi uch yil davomida o'zbekistonlik olimlar tomonidan xalqaro ilmiy jurnallarda 120 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI (Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim)



O'zbekistonda fransuz filologiyasining rivojlanishi – ilmiy yo'nalish

tik va metodik salohiyatini yanada oshirish imkonini beradi. Fransuz tilining O'zbekistondagi o'quv tizimida tutgan o'rni va rivojiga qo'shgan hissasi uchun bir qator O'zDJTU vakillari Fransiya Respublikasining nufuzli "Akademik palmalar" ordeni bilan taqdirlangan. Ular orasida professor Gulandom Bakieva, professor Manobjon Nishonov, dotsent Zumrad Abdushukurova, dotsent Svetlana Tayurskaya, professor Jamoliddin Yoqubov, professor Abdurahim Nosirov va dotsent Fatxiddin Nishonov bor. Mazkur yutuqlar O'zbekistonda fransuz tilini o'qitish tizimining xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgani va uning taraqqiyotida yangi bosqich boshlanganini ko'rsatadi.

7. Kadrlarni qayta tayyorlash

O'zbekistonda fransuz tilini kasbiy maqsadlarda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Xususan, diplomatiya, xalqaro munosabatlar, turizm va mehmonxona biznesi, xalqaro savdo, madaniyat, san'at hamda

huquqshunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun fransuz tilini kasbiy yo'nalishda o'rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yo'nalishlarda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishda "Alliance Française" markazlari muhim o'rin tutadi. Bu markazlar nafaqat umumiy til ko'nikmalarini, balki soha xususiyatiga mos kommunikativ va kasbiy til malakalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

2024-yilda o'zbek va fransuz mutaxassislari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan "FrancOuz" fransuz tilini o'rganish uchun onlayn platforma ishga tushirildi. Fransuz tili O'zbekistonda nafaqat o'quv va ta'lim sohasida, balki diplomatiya, madaniyat, turizm va biznes aloqalarida ham muhim vosita sifatida rivojlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatning xalqaro maydondagi faoliyati, ayniqsa Frankofon hamkorlik tashkilotlariga a'zo bo'lishi tilning yanada keng tarqalishiga turtki bermoqda.



Shuningdek, fransuz tilini bilgan mutaxassislar zamonaviy bozor talablariga javob beradi va ularning ish topish imkoniyatlari oshadi.

2025-yil mart oyida O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya-ning eng nufuzli mukofoti — "Faxriy legion" ordeni bilan taqdirlanishi ikki davlat o'rtasidagi mustahkam hamkorlik va o'zaro hurmatning yaqqol tasdig'i bo'ldi. Bu taqdirlash nafaqat shaxsiy yutuq, balki O'zbekiston-Fransiya munosabatlarining rivojlanishidagi muhim burilish nuqtasidir.

Shuningdek, 12-mart kuni o'tkazilgan forum doirasida O'zbekiston va Fransiya hukumatlari o'rtasida O'zbek-fransuz universitetini tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitim imzolanishi ta'lim sohasida ikki davlatning strategik sheriklik yo'lida sezilarli qadam tashlanganini ko'rsatadi. Bu universitet O'zbekistonning oliy ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish, ilmiy va madaniy almashinuvni rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

2025-yilning kuzida Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan YUNESKOning 43-Bosh konferensiyasi sessiyasiga tayyorgarlik masalalari doimiy ravishda muhokama qilinib kelmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro miqyosda ta'lim, fan va madaniyat sohasida yetakchi o'rin egallash niyatini bildiradi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipovning YUNESKO bosh direktorining o'rinbosari Stefaniya Jannini bilan uchrashuvi ham bu yo'nalishdagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning muhim qismi hisoblanadi.

"Fan va ta'lim: O'zbekiston-Fransiya ko'p-rigi" konferensiyasi doirasida ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 26 ta kelishuv, shartnoma, yo'l xaritalari, xalqaro loyihalar va memorandumlar imzolanganligi ikki tomonlama hamkorlikning turli sohalarda keng ko'lamda rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ushbu hujjatlar nafaqat ta'lim va ilm-fan sohasida, balki innovatsiyalar va madaniy aloqalarda ham samarali integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, so'nggi yillarda O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi hamkorlik siyosiy, ta'limiy va madaniy sohalarda izchil va keng qamrovli rivojlanmoqda. Bu jarayon mamlakatlarning o'zaro manfaatli aloqalarini mustahkamlash va xalqaro maydonda yangi imkoniyatlarni yaratishda muhim omil bo'lmoqda.

Shuni ham qayd etish lozimki, O'zbekiston-Fransiya universitetini ochish g'oyasi bundan bir yil avval 2024-yil 11-mart O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov Fransiyaning mamlakatimizdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Oreliya Bushez bilan uchrashganida ilgari surilgan edi [OTFI vazirligi "Fransiya elchisi bilan O'zbekiston-Fransiya universitetini tashkil etish masalalari muhokama qilindi", 2024].

Keyinchalik esa 2025-yil 19–20 may kunlari Toshkentda o'tkazilgan "O'zbek-fransuz universiteti: istiqbollar va rivojlanish" forumi O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi oliy ta'lim hamkorligining yangi bosqichi bo'ldi. Forum doirasida 1-sentabrda ochilishi rejalashtirilgan O'zbek-fransuz universiteti tashkil etilishining tashkiliy jihatlarini muhokama qilindi. Mazkur universitet bo'yicha hukumatlararo bitim prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil mart oyi-

dagi Parijga tashrifi davomida imzolangan edi. Universitet ikki davlat o'rtasidagi ilmiy-akademik sheriklikni rivojlantirishga, zamonaviy bilimlarni uzatishga va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi [Gazeta.uz "Toshkentdagi forumda O'zbek-fransuz universitetining ochilishi muhokama qilindi", 2025].

O'zbekiston-Fransiya universiteti uch yo'nalish bo'yicha magistratura dasturlarini ishga tushirish rejalashtirilmoqda:

- "Lingvistika: chet tili sifatida fransuz tili"
- 2025-2026 o'quv yilidan boshlab
- "Qayta tiklanadigan energiya"
- "Transportda logistika va intellektual tizimlar"

Loyiha hamkorlari – Fransiya tomonidan Puatye, Lion 2, Renn va Gavr Normandiya universitetlari hamda O'zbekiston tomonidan O'zDJTU, O'zMU, Texnika universiteti va Transport universiteti.

2025-yilda "Chet tili sifatida fransuz tili" (FLE) yo'nalishi bo'yicha magistratura dasturiga 25 nafar talaba qabul qilish rejalashtirilmoqda.

O'zbekistonda fransuz tilining ta'lim tizimidagi o'rni barqaror o'sib borayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda bir qator muammolar hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Eng avvalo, hududiy kadrlar taqchilligi sezilarli: poytaxt va yirik shaharlarda fransuz tili o'qituvchilari yetarli bo'lsa-da, chekka hududlarda malakali mutaxassislar yetishmayapti. Bu esa ta'lim sifatida keskin tafovutlarga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy malakaga ega o'qituvchilar soni yetarli emasligi, o'qituvchilarning ko'p hollarda eski metodikaga asos-

langan darsliklar va resurs cheklovlari sharoitida ishlashi til o'rganish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Audio-video texnologiyalarining yetishmasligi esa tilni interfaol va amaliy o'rganish imkoniyatlarini cheklaydi.

Yana bir muhim masala — yoshlar orasida ingliz tilining ustuvorligi. Ko'plab talabalar va mutaxassislar ingliz tilini kasbiy rivojlanish, ilm-fan va xalqaro almashinuvlar uchun afzal til deb hisoblashadi. Bu holat fransuz tiliga bo'lgan motivatsiyani pasaytiradi. Shu bilan birga, til musobaqalari, grantlar va almashinuv dasturlarida fransuz tilining ko'rinishi cheklangan, bu esa tilni global kontekstda o'rganish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Fransuz tilidagi ta'lim sohasida yana bir to'siq — xorijiy malaka va diplomlarni tan olishdagi qiyinchiliklar, bu esa xorijda o'qib kelgan kadrlar uchun integratsiya jarayonini murakkablashtiradi.

Shu boisdan, fransuz tilini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro strategik hamkorliklar, resurslarni modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlashni zamonaviy standartlarga moslashtirish, shuningdek, integratsiyalashgan va motivatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur strategiyalar fransuz tilini o'rganish sifatini oshirib, uning nufuzi va amaliy ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Fransuz tilini O'zbekistonda yanada rivojlantirish uchun tizimli va uzoq muddatli strategik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, aholining fransuz tiliga va frankofon madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida turli madaniy tadbirlar — fransuz

madaniyati festivallari, til tanlovlari, olimpiadalar va ijodiy uchrashuvlarni muntazam tashkil etish lozim. Bunday tadbirlar til o'rganishga motivatsiyani kuchaytiradi hamda yosh avlodda fransuz tiliga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi.

Shuningdek, fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, jumladan, tashkil etilishi kutilayotgan O'zbek-fransuz universiteti doirasidagi ilmiy va akademik loyihalar muhim istiqbolga ega. Ushbu universitet nafaqat fransuz tilini o'rganish uchun markazga, balki O'zbekiston hududida frankofon madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiluvchi platformaga aylanishi mumkin.

Til o'qitish jarayonida zamonaviy, kommunikativ yondashuvlarni keng qo'llash, amaliy

maslg'ulotlarga yo'naltirilgan uslublarni rivojlantirish zarur. Bu jarayonda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash alohida o'rin tutadi. Jumladan, milliy raqamli ta'lim platformasini yaratish, interaktiv mobil ilovalar ishlab chiqish, chekka hududlardagi o'qituvchilar uchun masofaviy kurslar tashkil etish, aralash (onlayn va oflayn) ta'lim shakllarini yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Fransuz tilini sifatli o'qitish imkoniyatlarini mamlakat miqyosida teng taqsimlash uchun hududiy o'quv markazlarini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Ular zamonaviy texnik baza va metodik ta'minot bilan jihozlanishi kerak.

Bundan tashqari, ikki tilli (fransuzcha-o'zbekcha yoki fransuzcha-ruscha) ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali nafaqat til o'r-



ganish, balki turli kasbiy fanlarni fransuz tilida o'qitish imkoniyatlari kengaytirilishi mumkin. Bu yondashuv tilni nafaqat aloqa vositasi, balki kasbiy faoliyat asbobi sifatida qo'llashga xizmat qiladi.

Shuningdek, fransuz tilida so'zlashuvchi davlatlarda o'quv va stajirovka imkoniyatlari uchun kvotalarni ko'paytirish, talabalar va o'qituvchilarni "Erasmus+" kabi dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash ham zarur. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarning malakasini oshirishga va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Fransuz tilining O'zbekistonda rivojlaniishi turizm, madaniyat, diplomatiya, ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi xalqaro aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, global frankofon hamjamiyatga integratsiyalashish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu boisdan ham fransuz tilini o'rganish nafaqat individual bilimga, balki mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan strategik vosita sifatida qaralishi lozim. Taklif etilayotgan strategik chora-tadbirlarning samaradorligini baholash uchun aniq natijaviy ko'rsatkichlarni belgilash muhim hisoblanadi. Bunday mezonlar nafaqat tashkiliy faoliyatning monitoringini, balki til siyosatining umumiy muvaffaqiyatini ham o'lchash imkonini beradi.

Birinchidan, 2027-yilga qadar fransuz tilini o'rganuvchilar sonini kamida 180 000 nafarga yetkazish rejalashtirilmoqda. Bu ko'rsatkich mamlakat miqyosida fransuz tilining o'quv dasturlaridagi ulushi ortayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, fransuzabon davlatlar bilan amalga oshirilayotgan xalqaro ilmiy, madaniy

va ta'lim loyihalari sonining oshishi til o'rganishning amaliy natijasini va hamkorlikning chuqurlashuvini ko'rsatadi.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarining bitiruvchilari orasida fransuz tilini egallash darajasining sifat jihatidan oshishi, jumladan, xalqaro til sertifikatlarini olish darajasining ko'tarilishi, ta'lim jarayonidagi metodik yondashuvlarning samarasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'ladi.

Nihoyat, bu chora-tadbirlar O'zbekiston va fransuzabon mamlakatlar o'rtasidagi strategik, madaniy va akademik hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilishi kutilmoqda. Bu esa til siyosatining faqat ichki emas, balki tashqi siyosiy aloqalarni chuqurlashtirishdagi rolini ham namoyon etadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida fransuz tilining o'rni so'nggi yillarda jadal rivojlanib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Globalizatsiya, xalqaro hamkorlik, ayniqsa Fransiya bilan aloqalarning kuchayishi bu tildagi bilimlarni strategik zaruratga aylantirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi, imzolangan bitimlar va O'zbekiston-Fransiya universiteti loyihasi bu yo'nalishdagi aloqalarning chuqurlashayotganidan dalolat beradi.

Ta'limning barcha bosqichlarida – maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar maktablari, oliy va oliy ta'limdan keyingi bosqichlarda fransuz tili bo'yicha ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. O'quv dasturlarining zamonaviylashuvi, malaka oshirish tizimining rivoji va xalqaro stajirovkalar orqali o'qituvchilarning salohiyati oshirilmoqda. Shu bilan birga, "Alli-

ance Française” markazlari va onlayn platformalar fransuz tilining ommalashuviga katta hissa qo'shmoqda.

Biroq, tizimda mavjud muammolar — hududiy kadrlar taqchilligi, zamonaviy metodika va texnologiyalar yetishmasligi, ingliz tilining raqobati fonida fransuz tiliga bo'lgan motivatsiyaning sustligi hal etilishi zarur bo'lgan muhim masalalardandir.

Kelgusida fransuz tilini o'qitishni yanada takomillashtirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim: viloyatlardagi

o'qituvchilar salohiyatini oshirish, interfaol o'quv texnologiyalarini joriy qilish, tilni amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish hamda yoshlar orasida fransuz tilining nufuzini oshirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish.

Umuman olganda, fransuz tilining O'zbekistonda o'qitilishi nafaqat til o'rganishga xizmat qilmoqda, balki ikki mamlakat o'rtasidagi strategik, madaniy va ilmiy hamkorlikning mustahkam poydevorini yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 sonli “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5426736?ONDATE=01.01.2025%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan Fransiya Respublikasi Yevropa va tashqi ishlar vazirligi o'rtasida ahdlashuv deklaratsiyasi “O'zbekistonda fransuz tili ta'limi va o'qitilishi to'g'risida”. 2023-yil 14-noyabrda 4532-FR-2023-H. <https://www.lex.uz/ru/docs/-6671332>
3. O'zbekiston Milliy Axborot agentligi, Kamola Yusupova “Fransuz tili o'qituvchilari xalqaro ta'lim tajribalarini o'rganmoqda”. https://uza.uz/oz/posts/fransuz-tili-oqituvchilari-xalqaro-talim-tajribalarini-organmoqda_535749?utm_source
4. Vazirlik yangiliklari “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida fransuz tili o'qitiladi” 2025-yil 15-oktyabr. <https://uzedu.uz/uz/news/1801>
5. Vazirlik yangiliklari “Ayni damda 60 nafar fransuz tili o'qituvchilari Fransiyaning Nitsa shahrida amaliyot o'tashmoqda” 2024-yil 24-iyun. <https://uzedu.uz/uz/news/1650>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Fransiya elchisi bilan O'zbekiston-Fransiya universitetini tashkil etish masalalari muhokama qilindi” 2024-yil 11-mart. <https://edu.uz/uz/news/view/6551#gsc.tab=0>
7. Prezident.uz “O'zbekiston Prezidentining Fransiya davlat tashrifi yakunlandi” 2025-yil 13-mart. <https://president.uz/oz/lists/view/7944>
8. Gazeta.uz “Toshkentdagi forumda O'zbek-fransuz universitetining ochilishi muhokama qilindi” 2025-yil 20-may. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/05/20/uzbek-french-university/>

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH



Zufar TOHIROV,

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi Ta'lim dasturlarini takomillashtirish
bo'limi boshlig'i

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tomonidan sun'iy intellektni oliy ta'lim tashkilotlaridagi o'quv jarayoniga qo'llash bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar tahlil qilindi.

Bugungi kunda respublikamizda o'qituvchi va talabalar tomonidan sun'iy intellekt ChatGPT, Claude, Grok, Gemini kabilardan ma'lumot izlash va ularni qayta izlashda foydalanilmoqda. Eng muhimi, sun'iy intellekt yo'nalishida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "60610500 – Sun'iy intellekt" bakalavriat ta'lim yo'nalishi, "70610501 – Sun'iy intellekt" magistratura mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlanmoqda.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari jamiyatimizning barcha sohalariga, shu jumladan, oliy ta'lim tizimiga ham faol kirib kelmoqda. Bu texnologiyalar o'qitish va o'rganish jarayonlarini sezilarli darajada o'zgartirish, ta'lim sifatini oshirish va talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Slga asoslangan platformalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi oliy ta'lim muassasalarining ishini ancha yengillatadi. O'quv jarayonini tashkil etish, mehnat bozorini tahlil qilish orqali yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish, ta'lim dasturlarini shakllantirish, professor-o'qituvchilarning o'quv-yuklamalarini hisoblash va nazorat qilish, talabalar bilimini monitoring qilish, o'zlashtirish past bo'lgan talabalarni tezkor aniqlash va ularni o'quv natijadorligini yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqish kabi bir qancha yengilliklarga olib keladi.

Ittifoqdosh bozor tadqiqotlari (Alliyed market research) firmasining tahlillariga qaraganda, sun'iy intellektning 2022-yilda ta'limda \$2.5 mlrdni tashkil qilgan bozor ulushi, 2032-yilga kelib \$88.2 mlrdga yetishi taxmin qilingan. Bunda sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ahamiyati oshib borishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, o'quv rejalarining mehnat bozoriga moslashuvini va ta'limning uzluksizligini ta'minlash kabi maqsadlar imkon beradi.

Ammo SI ta'lim tizimiga tobora chuqur kirib borayotgan bir paytda, uning xavf-xatarlari ham ortib bormoqda. Shuning uchun SI texnologiyalarini joriy etishda nafaqat foyda olishga, balki ulardan noto'g'ri foydalanish oqibatlarini ham oldindan ko'ra bilishimiz kerak.

ChatGPT, Claude, Grok, Gemini va boshqa sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari tomonidan yozilayotgan nazorat ishlari, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiya ishlari yozishga akademik halollik qoidalariga zid holatlar ko'p uchramoqda.

Bundan tashqari, Slga haddan tashqari ishonish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini susaytirishi, ijodiy yondashuvni cheklashi va tanqidiy tafakkurning rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin. Slining haddan tashqari qo'llanilishi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi insoniy munosabatlarni kamaytirishi, hissiy aloqani yo'qotishi mumkin.

SI foydalanish bo'yicha xorijiy tajriba ham o'rganildi.

Jorjiya davlat universiteti (AQSH): Jorjiya shtat universiteti talabalarga yordam berish uchun sun'iy intellektga asoslangan chatbotni joriy qilgan. Chatbot qabul qilish, ro'yxatdan o'tish va boshqa umumiy so'rovlar bilan bog'liq savollarga javob berishga yordam beradi. "Pounce" nomli sun'iy intellektga asoslangan virtual yordamchi talabalarning umumiy so'rovlariga tez va aniq javoblar berish uchun mo'ljallangan chatbot.

Chatbot foydalanuvchi so'rovlarini tushunish va ularga javob berish uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va mashinani o'rganish algoritmlarini qo'llaydi. U talabalar uchun 24/7 resurs bo'lib xizmat qiladi, suhbat tarzida ma'lumot va yo'l-yo'riqlarni taklif qiladi. Mun-tazam savollarga javoblarni avtomatlashtirish orqali "Pounce" talabalarga samaradorlikni oshirishga va o'z vaqtida bajarishga yordam beradi.

Singapur Milliy universiteti (NUS): universitet ta'lim jarayonlariga sun'iy intellektni, jumladan, talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun chatbotlardan foydalanish va o'qitishda sun'iy intellekt ilovalarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Masofaviy baholashning yaxlitligini ta'minlash

va ma'lumotlarni himoya qilish uchun sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda.

ExamID sun'iy intellekti biometrik yuzni aniqlash orqali har bir talabaning shaxsini raqamli tasdiqlaydi. ExamMonitoring esa imtihon va baholash davomida talabalarni video va audio orqali monitoring qiladi. Sun'iy intellekt tizimi proktoring videolarini tahlil qiladi va harakat, qarash, ovoz chiqarish va xatti-harakatlardagi har qanday qoidabuzarliklarni aniqlaydi va hisobot tayyorlaydi. Realizeit o'quv jarayonlarida o'rganilgan bilimlarni qayta ko'rib chiqish va mustahkamlashni, yangi bilimlarni o'zlashtirishni, bo'linishni hisobga olish uchun davriy bilimlarni yangilashni va bilimning saqlanishini tekshirish uchun mikro-baholashni o'z ichiga oladi.


Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha 2023-yilgi so'rov ma'lumotlariga ko'ra (YUNESKO, 2023-yil), faqat yettita davlat xususidan, Xitoy, Finlyandiya, Gruziya, Qatar, Ispaniya, Tailand va Turkiyada o'qituvchilar uchun sun'iy intellekt bo'yicha o'quv tizimlari yoki o'quv dasturlari ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqish jarayoni boshlanganligi ma'lum qilingan. Faqatgina Singapur ta'lim vazirligi ChatGPT-dan ta'lim berish va o'rganishda foydalanishga yo'naltirilgan onlayn repozitoriy yaratilganini ma'lum qildi. Bu aksariyat mamlakatlarda o'qituvchilar ta'limda sun'iy intellektdan, xususan, generativ sun'iy intellektdan ta'limni samarali tashkil etishda foydalanish imkoniyatiga ega emasliklarini yaqqol ko'rsatadi.

Sun'iy intellektdan foydalanishning umumiy tamoyillari

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim, tibbiyot, sanoat va boshqa sohalarda keng qo'llanilishiga zamin yaratmoqda. Shu sababli texnologiyalardan samarali va mas'uliyatli foydalanish uchun umumiy tamoyillarni belgilash zarurati yuzaga kelmoqda. Tadqiqotlar va xulosalar asosida quyidagi umumiy tamoyillar ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish uchun YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur tamoyillar qatoriga foydalanishning asoslanganligi, antropotsentriklik (inson manfaatlari ustuvor qo'yish), axloqiy me'yorlarga rioya qilish, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, huquqiy asoslarga tayanish, SI bilan ishlash bo'yicha kompetensiya va ko'nikmalarni rivojlantirish kabilar kiradi.

1. Foydalanishning asoslanganligi –

Sun'iy intellekt texnologiyasi ta'lim, o'qitish va tadqiqot samaradorligini oshirishda maqbul vosita sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt qo'llaniladigan har qanday kontekst ushbu texnologiyaning oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan salohiyatini hisobga olgan holda, maxsus tartibga soluvchi qoidalarining mavjud bo'lishini talab qiladi. Agar akademik faoliyatda sun'iy intellektdan foydalanishning ayrim jihatlari hali tartibga solinmagan bo'lsa, tegishli tashkilotlar mazkur masala bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishni ta'minlaydi.



2. Antropotsentriklik – sun'iy intellekt odamlarga ularning imkoniyatlarini to'liq almashtirishga emas, balki kengaytirishga yordam berishi kerakligini nazarda tutadi. Ushbu tamoyil shuni anglatadiki, sun'iy intellekt turli vazifalarning samaradorligini oshirish uchun ishlatilishi mumkin, ammo har bir qo'llanilish holati odamlar uchun foyda nuqtayi nazaridan baholanishi kerak. Sun'iy intellektdan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari kompetensiyalar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish hamda ta'lim va tadqiqotlarga kirishdagi tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

3. Sun'iy intellektdan foydalanish talablari. Tashkilot ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini sun'iy intellekt (SI) tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlar haqida xabardor qilishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlarni amalga oshiradi. Bunday xabardorlik tadbirlari ta'lim oluvchilar, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar hamda ma'muriy xodimlarni qamrab oladi. Ushbu faoliyatning eng muhim jihati — SI texnologiyalari va generativ modellar asosida joriy etilgan yoki joriy etilishi rejalashtirilayotgan vositalar va xizmatlar bilan to'liq tanishishni ta'minlashdan iborat.







Bundan tashqari, tashkilot shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning mavjud standartlariga, shuningdek, boshqa inson huquqlariga e'tibor qaratishi kerak, bu ayniqsa sun'iy intellekt bilan ishlash nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari foydalanuvchilarning huquqlarini buzmasdan va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlagan holda ushbu texnologiyalardan qanday foydalanishni tushunishlari muhimdir.

4. SI bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish. Tashkilot barcha xodimlar, ta'lim oluvchilar va foydalanuvchilarning boshqa toifalari tomonidan sun'iy intellektni o'zlashtirishda, uning qo'llanilishi, imkoniyatlari va cheklovlarini tushunishda yordam beradi. Zarur kompetensiyalar professor-o'qituvchilari malakasini oshirishga ko'maklashuvchi tadbirlar ro'yxatiga kiritiladi.

5. Sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish. Tashkilot sun'iy intellektdan foydalanishda asosiy axloqiy me'yorlar (xavfsizlik, mas'uliyat va kamsitmas-

lik) va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini kafolatlaydi. Bu sun'iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlarning adolatli, xolis va obyektiv ma'lumotlarga asoslangan bo'lishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

6. Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish — Tashkilot ma'lumotlar bazasi, qismida shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasi nafaqat O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, balki tartibga solinmagan vaziyatlarda ham hurmat qilinishini kafolatlaydi. Tashkilot ta'lim, tadqiqot yoki ta'limni boshqarishda sun'iy intellektni qo'llash uchun foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanishga rozilik olishi shart.

7. Sun'iy intellekt bilan ishlash uchun zarur bo'lgan kompetensiya yoki ko'nikmalar. Tashkilot sun'iy intellektdan foydalanadigan barcha ishtirokchilar zarur bilimlarga, jumladan, axloqiy me'yorlar va standartlarni tushunishlariga ko'maklashadi va barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi. Zarur hollarda, ularga SI ishlatishdan oldin trening yoki kursga kirish imkoniyati beriladi.

8. Sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy tamoyillari. Sun'iy intellektdan foydalanish jamiyat uchun foydali vazifalarni hal qilishga yordam berishi, ijobiy amaliyotlarni yaratishi va na alohida shaxslarga, na butun jamiyatga zarar yetkazmasligi va hech kimning huquqlari cheklanmasligi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, OTTlarda o'quv jarayonini takomillashtirishda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Sun'iy intellektdan ta'lim jarayonida

foydalanish yuzasidan xorijiy davlatlar tajribalarini chuqur o'rganish va tahlil qilish;

2. Sun'iy intellektdan ta'lim tizimida oqilona foydalanish bo'yicha Nizom yoki boshqa normativ-huquqiy asoslarni ishlab chiqish;

3. Tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilarga sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashni o'rgatadigan seminar-treninglar tashkil etish;

4. Sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi qadriyatlar, bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan elektron platformalar yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jingwei He, A., Zhang, Z., Anand, P., & McMinn, S. (2024). Embracing generative artificial intelligence tools in higher education: a survey study at the Hong Kong University of Science and Technology. *Journal of Asian Public Policy*, 1–25. <https://doi.org/10.1080/17516234.2024.2447195>

2. Guidance for generative AI in education and research. © UNESCO 2023. Published in 2023 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France.

3. Milana, M., Brandi, U., Hodge, S., & Hoggan-Kloubert, T. (2024). Artificial intelligence (AI), conversational agents, and generative AI: implications for adult education practice and research. *International Journal of Lifelong Education*, 43(1), 1–7.

4. Noorbehbahani, F., A. Mohammadi, and M. Aminazadeh. 2022. "A Systematic Review of Research on Cheating in Online Exams from 2010 to 2021." *Education and Information Technologies* 27 (6): 8413–8460. <https://doi.org/10.1007/s10639-022-10927-7>.

5. Elkhodr, M., E. Gide, R. Wu, and O. Darwish. 2023. "ICT students' Perceptions Towards ChatGPT: An Experimental Reflective Lab Analysis." 3 (2): 70–88. <https://doi.org/10.3934/steme.2023006>.

6. Usher, M. (2025). Generative AI vs. instructor vs. peer assessments: a comparison of grading and feedback in higher education. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 1–16.

7. Nikolic, S., Sandison, C., Haque, R., Daniel, S., Grundy, S., Belkina, M., Neal, P. (2024). ChatGPT, Copilot, Gemini, SciSpace and Wolfram versus higher education assessments: an updated multi-institutional study of the academic integrity impacts of Generative Artificial Intelligence (GenAI) on assessment, teaching and learning in engineering. *Australasian Journal of Engineering Education*, 29(2), 126–153.

8. Su Juy, Bi Syaohan, Sit Fun, Chjou Szin'i, Chjou Szyshyun "Высшее образование в эпоху искусственного интеллекта" © YUNESKO 2023.

9. "Руководство по использованию генеративного искусственного интеллекта в образовании и научных исследованиях" © YUNESKO 2024

Onlayn jurnalistikada tahririyatlar faoliyatining o'ziga xosligi



Madinabonu NURUTDINOVA,

filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Infokommunikatsion texnologiyalarning paydo bo'lishiga 1940-yillarda kashf etilgan elektron rele prototipi turtki bo'lgan. 1941-yillarda bir necha elektromexaniklar guruhi hamda nemis muhandisi Konrad Zuys kichik namunadagi kompyuter qurilmalarini yaratdi. 1943-yilda IBM korporatsiyasi tomonidan ilk Mark-1 nomli gigant elektron hisoblash mashinasi qurib bitkazildi. 50 dan ortiq vakuum lampalardan yasalgan gigant qurilma 15 metrni tashkil qilgan. Ushbu qurilma texnika tarixidagi ilk multimediani qo'llab-quvvatlovchi mashina hisoblanadi. Keyinroq 1950–1951-yillarda MEMS (kichik hisoblash mashinasi) yaratilib, u soatiga oltmishga yaqin arifmetik operatsiyalarni amalga oshira olgan. 1976-yilda Stiv Jobs hamda Stiv Voznyak tomonidan yaratilgan “Macintosh” qurilmasi bugungi shaxsiy kompyuterlarning asosi hisoblanadi. Aynan matnga turli formatlarning uyg'unlashtirilishi esa 1960–1962-yillarga to'g'ri keladi. 1995-yilda multimediasiy xitrolar 20 dan ortiq universitet hamda ilmiy tadqiqot institutlarini birlashtirgan bo'lib, markazlar turli terminallar, display jihozlar, elektronika EHM mashinalari bilan jihozlangan edi.

Bugungi globallashuv asrida turli tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari tahririyatlarida ham infokommunikatsion texnologiyalar muntazam joriy etilmoqda. Oddiy matn va arifmetik amallarni bajarish bilan boshlangan texnologik ixtirolar murakkab operatsiyalar, mualliflik matnlari, surat chizish, tahlil qilish kabi sun'iy intellekt amaliyotini ham qamrab oldi. Matbuot tahririyatlari konvergent media markazi sifatida amaliyotda transprofessional jurnalistlar, raqamli infokommunikatsion axborot texnologiyalar yordamidan faol foydalanmoqda. Jahon miqyosida 120 dan ortiq davlatning 4000 yaqin jurnalistlari orasida o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra, "...ediakorporatsiyalar doimiy ravishda raqamli texnologiyalardan muntazam foydalanish orqali yangidan-yangi nashr standartlariga o'tish, onlayn tahririyatlarning auditoriyaga divergent moslashuvi, axborot agentliklarining turli nashrlar bilan sinergetik ish jarayoni qayd etilgan". Yana bir tahliliy misol: ko'plab amaliyotchi jurnalistlarning fikricha, bugungi kun tahririyatlar ma'lum bir janrda yozilgan maqola yoki reportaj emas, aksincha aniq auditoriya yoki mavzuga yo'naltirilgan media loyihalar, vizual longrid va storytelling va mukammal gipermatnlarni talab qilmoqda [5]. Bu jurnalistik kasbiy faoliyatdagi yangi ko'nikmalar hamda infokommunikatsion mediakompetensiyaga bo'lgan yuqori ehtiyojni keltirib chiqardi. Tahririyatlarning rebrendingida multimedaviy vositalardan foydalanish bosh konsepsiyaga aylandi. Infokommunikatsion multimedia vositalarining rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ta'lim, axborot texnologiya jarayonlarida ishlatiladigan texnika vositalar taraqqiyoti;

2. O'quv dasturlari hamda ma'lumotlar bazasining kengayishi;

3. Kommunikativ imkoniyatlarning o'sishi.

Infokommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bu xos interaktiv jarayon bo'lib, unda bir qancha formatlar foydalaniladi. Jumladan:

- Har xil turdagi axborotni qayta ishlash va tartiblash texnikasi;

- Interaktiv axborot resurslari yordamida yaratilgan kontent;

- Kompyuter uskunalari yordamida yaratilgan vizual, statistik hamda dinamik ma'lumotlar jamlanmasi [3, 37].

Infokommunikatsion multimedaviy hodisalarning tahririyatlar faoliyat ta'siri o'laroq quyidagi tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Masalan:

- Konvergent tahririyat transformatsiyasi; bugungi kunda konvergent tahririyat media taraqqiyotining eng istiqbolli modellaridan biri hisoblanadi. Birlashgan tahririyat tamoyili g'oyasi bugungi kunda mavjud bo'lgan media-mahsulot formatlari: onlayn, bosma, mobil, shuningdek, eshittirishlarning integratsiyasida mujassamlashgan. Umuman, konvergensiya g'oyasini amalga oshirish axborot mahsulotlarini ishlab chiqarishning "yangi tizimi" distributsiyasini (kompleks taqsimot) nazarda tutadi. Endi tahririyatning bunday formatlari transmediaviy hikoya qilish tamoyili asosida amalga oshirilib, ular axborot va anonslar bilan o'zaro fikr almashadilar [1, 29]. Shuningdek, umumiy media mahsulotlarini yaratish jarayoni ishtirokchilarining OAV materiallariga asoslanadi (You tube kanalidagi asosiy ishtirokchilarini misol sifatida ko'rsatish mumkin). Bu esa, o'z navbatida, yagona axborot markazining imkoniyatlari va be-



rilayotgan yangiliklar sifatining oshishiga olib keladi, ya'ni ommaning axborotga nisbatan turli ehtiyojlari qondiriladi. Bunda auditoriya hamda axborot mutanosibligi turlicha bo'lishi mumkin. Jurnalistikada janrlar birlashuvi multimediasiy tahririyatlarni yuzaga keltirdi. Mazkur multimediasiy onlayn tahririyatlarga "Аргументы и факты" gazetasining <http://www.aif.ru>, "Первое сентября" elektron – www.1september.ru va bosma nashri, "Московские новости" gazetasining www.mn.ru hamda jurnal ilovalari, Newsday-gazetasi va elektron news.com nashri, www.rsl.ru nashrlarini misol qilish mumkin [8, 17].

–Integratsiyalashgan tahririyat transformatsiyasi; unda axborot kanallarini tashkil etuvchi kontentni ta'minlab beradigan rejalashtirish hamda ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtiriladi. Bunday tahririyatda ma'lum bir axborot

kanali uchun mas'ul bo'lgan yagona xodim bo'lmaydi. Nashriyotning bosma va raqamli qatlamlarida yangiliklarni yoritish mas'uliyati ma'lum mavzuga ixtisoslashgan bo'lim muharriri zimmasiga yuklatilib, u xodimlarga doimiy ravishda vazifalarni taqsimlab beradi. Masalan, "Drudge Report" tahririyati integratsiyalashgan tahririyatning yaqqol namunasidir. U boshqa saytlarga yangiliklar taqdim etuvchi asosiy sensatsiyalar markazi sifatida jahonga mashhur. Yirik siyosiy, iqtisodiy jarayonlarda (AQSh saylovoldi kampaniyalari) ushbu tahririyatning onlayn anketa so'rovnomasi, 24 soat e'fir taqdim etuvchi video syujetlari doimiy yangilanib turuvchi fotomatnlari shular jumlasidan.

–Kross-media OAV tahririyati – shunday tahririyatki, bunda ish jarayoni o'zaro axborot almashish tamoyiliga asoslanadi. Bunda nashri-

yoʻtning barcha texnologik qatlamlari uchun ishlab chiqariladigan kontentni yaratish, qayta ishlash va tarqatish faoliyati kiradi. Turli mavzudagi boʻlim xodimlari nashrning ham bosma, ham onlayn versiyalari uchun kontent tayyorlaydilar. Bu veb-saytlarni video va audioroliklar bilan taʼminlash hamda uning bosma va yozuvli efirlarini uzatish imkoniyatini beradi. Masalan, “The Gateway Pundit” faoliyati kross media OAV sifatida barchaga maʼlum. Shuningdek, Asaxi Shimbun jami 16 ta yirik media (televideniye – Osaka Television, JOBX-TV, Yomiuri Television, ABC Osaka Television, TV Wakayama, Biwako Broadcasting, radio – Osaka, Kyoto), Yahoo, Grupo globo, Fuji media holding, Mediaset, ItV plc kabi yirik media konglomeratlarini ham kiritish mumkin.

Kross-media jurnalistikasida bir nechta mugobil va raqamli ommaviy axborot vositalari:

telefon, televizor, ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniladi. Kross media yoʻnalishining oʻziga xos xususiyati bir xil tarkibga ega axborotni turli platformalarda tarqatish mumkin. Bunda asosiy shart matn raqamli formatga oʻzgartirilishi kerak. Garry Xeys nazariyasi boʻyicha kross mediani toʻrt asosga boʻlib oʻrganish mumkin. Ular:

1. Hajmi va xususiyati jihatidan farqi katta bo'lgan media platformalarga joylashtiriladi.
2. Tarkibi va tarqatilish konsepsiyasi turlicha bo'lgan media platformalarda axborot tarqatiladi.
3. Muallif tomoshabinlarga axborot ta'sirini kuchaytirish maqsadida turli media platformalar uchun maxsus gipermatn tuzib, uni turli OAVga joylashtiradi. Bunda maqola tahririyatlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi.
4. Bunda aniq bir maqola, yo'nalish, mavzu







bo'yicha turli o'yinlar, tanlovlar e'lon qilinib, muallif bevosita interaktiv tarzda faol ishtirokchiga aylanadi.

Kross-media loyihalari axborot vositalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda auditoriya bilan muloqot qilishning eng samarali usuli bo'yicha 2010-yil "Mening chiroyli yurtim" (Моя красивая страна) nomli maxsus loyiha tashkil qilindi. Radio, matbuot va internet saytlari, axborot xoldinglari ushbu loyihaga jalb etildi. Loyihaga ko'ra, jurnalistlar bilan birga havaskor qatnashchilar ham o'z ishlarini turli OAVda e'lon qilgan. Jahon axborot maydonida internet va infokommunikatsion dasturlar ixtiro qilinguniga qadar soha xodimlari OAVning barcha turida universal faoliyat yuritib kelgan. Texnologik ixtirolarning hosilasi bo'lgan dasturlar texnotron mualliflar faoliyatini professional bosqichga olib chiqdi. Ya'ni infokommunikatsion texnologiyalarning jarayonda qo'llanilishi transprofessional mualliflarni yaratib, kasbiylik talabini tubdan o'zgartirib, medianing barcha (matbuot, tv, radio) turida transprofessional kompetensiyalarning mukammal faoliyat yuritishini nazarda tutadi. Yuqorida qayd etilgan professionallik xususiyatlari jurnalist faoliyatida determinant omillarni keltirib chiqardi, jumladan:

1. Professional determinizm (umumiy kompleks omillar) – amalda mavjud ijtimoiy holatdan kelib chiqib, bozor talabi inobatga olinadi. Ya'ni, jurnalist an'anaviy maktab vakili bo'lishidan qat'i nazar, hamma yo'nalishda faoliyat olib borishi shart.

2. Ommaviy ehtiyoj determinizmi, ya'ni axborotni professional yo'naltirish, ommaga mos dolzarb, qiziqarli yangiliklarni topish va chop qilish.

Jurnalistika sohasidagi infokommunikativ transformatsiyaning yana bir sababi an'anaviy hamda internet OAVning integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan multi-skilling (ingliz tilidan-ko'p qirrali) – "yangi media" yo'nalishi hisoblanadi. Ikki yo'nalish birlashuvidan yuzaga kelgan onlayn jurnalistika ma'lumotlar tarkibini individuallashtirish orqali ommani uzluksiz axborot qabul qiluvchi global qatlamga aylantirdi. Bu holatda jurnalistning ijtimoiy vazifasi, aloqani takomillashtirish hamda axborotni iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi yangi yo'nalishda ishlab chiqishni taqozo etadi. Sohaga oid muammolarni qayta ko'rib chiqishning eng optimal yechimi bu aynan onlayn jurnalistika konsepsiyasi va faoliyat strategiyasini ishlab chiqishdir. Texnik ixtirolar asrida yuzaga kelgan axborot tengsizlik davrida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishning asosiy shartlariga quyidagilar kiradi:

–Texnik qurilmalardan samarali foydalanish; kashf qilingan yangi robot dasturlar, texnik qurilmalar hamda kompyuter formatlarining amalda keng targ'ib qilinishi OAV mahsulotiga brend sifatida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi axborotni turli shakllari (ovoz, so'z, matn, tasvir) bilan tanishish imkoniyati xolis yondashuv, maqbul yechimiga olib keladi.

–Axborotni tezkor taqdim etish. Odatda, har bir ma'lumot ommaga taqdim etilishdan oldin bir necha bosqichlardan o'tadi. Bunga: yangilikni izlash, yozish (tovush, tasvir yoki matn ko'rinishida) uni tekshirish hamda tahlillash kiradi. Bu an'anaviy jurnalistikaning barcha vositalari (radio, TV, matbuot)ga xos xususiyat. Yangilik ijodkordan tashqari, bir musahhih va muharrir ko'rigidan o'tib, nashr yuzini ko'radi. Ammo in-

ternet tarmog'ida muallif o'z ishini hech qanday sensor yoki tahrirlarsiz omma e'tiboriga taqdim etishi mumkin. Bir tomondan bu yangilikning ibtidoiy sof holatini saqlab qolsa, boshqa tomondan tekshirilmagan ma'lumotlarning nashr etilishiga sabab bo'ladi;

– Kasbning universallashtiruv xossasi. Jurnalistik voqea joyidagi tezkorlikni ta'minlashi ko'proq o'quvchini qamrab olish maqsadida bir necha sohaviy bilimlardan xabardor bo'lishi lozim. Birgina jurnalistika sohasi o'zida matn yozuvchimuxbir, montajchi, dasturchi kabi bir necha kasb integratsiyasini taqozo etadi.

– Transmedianing tarkibiy qismiga aylanish. Media tizimining tarkibiy qismi bir necha kontent integratsiyasidan tashkil topgan bo'lishi ham profesional, ham havaskor ijodkorlarning teng huquqli ishtirokchi sifatida faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

– OAVning turli sohalar bilan uyg'unlashuvi. Jurnalistika bugungi kunga kelib, jamoatchilik bilan aloqalar, reklama, marketing, siyosatchi, kompyuter dasturchi, psixolog kabi yo'nalishlarda professional darajada faoliyat olib bormoqda. Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarning barchasi bir-birini to'ldirib umumkasbiy sinergetik hamkorlikdagi kompetensiyani talab qiladi.

– Gorizontalar – virtual aloqa ta'minoti. Internet tarmog'ining keng ommalashuvining yana bir sababi – undagi ikkiyoqlama aloqadir. Axborot tarqatuvchi hamda qabul qiluvchi auditoriya yangilikning yaratilishi va chop etilishida ishtirokchiga aylandi. O'quvchilar barcha ma'lumotlarga fikr bildirishi yoki qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etishi mumkin.

– Til maydonining kengayishi. Bir kontent-

da turli tildagi axborot, qolaversa, matnning vizuallashtiruv barcha uchun tushunarli kompleksni hosil qildi.

Internet kommunikativlik xossasiga ko'ra bir vaqtning o'zida axborotni yig'ish va uzatishni talab etgani bois, an'anaviy jurnalistika maktabini bitirgan mutaxassislar mazkur o'zgarishlar davriga moslashishi biroz qiyin kechishi mumkin. Bu tabiiy ravishda axborotning kommunikativ o'zlashuvdagi kompleks transplantatsiya jarayoniga keskin ta'sir qiladi.

Jurnalistik ijod mahsuloti bu – tovar, ya'ni iste'molchining e'tibor qiymatiga ega bo'lgan ko'p parametrlilik kommunikativ mahsulotdir. Uning xaridorgirlik darajasi bozor nuqtayi nazaridan turli omillar: brend, imidj, piar xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi. Masalan, Rianovosti saytida taqdim etilayotgan ma'lumotlar uning auditoriyasi tomonidan ko'p parametrlilik brend ma'lumot sifatida qaratiladi. Aynan infokommunikatsion texnologiyalar ko'p parametrlilik media mahsulot yaratishda jurnalistik ijodga yangicha ruh va zamonaviy faoliyat turlarini olib kirdi. Bunga yana bir misol sifatida tahririyatlarda qo'llanilayotgan nyusrum (news room) texnologiyalarini misol qilish mumkin. Nyusrum atamasi ingliz tilidagi "News-room" so'z birikmasidan olingan bo'lib, yangiliklarni ishlab chiqish, tahririyatda turli g'oyalarni integratsiya qilish strategiyasi bilan shug'ullanishni nazarda tutadi. Yirik media korporatsiyalar tarkibida tashkil qilingan nyusrumlar ko'proq mediametrik implementatsiyaga yo'naltiriladi. Ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalarida (matbuot, radio yoki televideniye) esa auditoriya ehtiyojlaridan kelib chiqib, unga moslashadi. Nyusrumlar konsepsiyasi AQShda-

gi bir qator konvergent tahririyatlar faoliyatidan shakllangan yangi yo'nalish bo'lib, ish hajmi tizim tarkibidan kelib chiqadi. Odatda, muayyan bir soha yoki yo'nalishga ixtisoslashuvda jurnalist kerakli manbalarni tez topa olish kompetensiyasi juda muhim omil. Buning natijasida jurnalistlarga katta hajmdagi axborot oqimini to'plash va uzatishga imkon beruvchi markazlarga ehtiyoj oshdi. Misol uchun, "Associated Press" tahririyati MOC-VS protokoli orqali 180 gradusli nyusrum (video+yangiliklar) faoliyatini yo'lga qo'ygan. Shuningdek, MEDO, IDOCS, "Художественный журнал", On-news, Ria novosti, Tv-project media markazlari ham nyusrumlar ish faoliyati jarayoniga qaratilgan. "Newsroom" nomli portalda esa 360 gradusli yangiliklar integratori yo'lga qo'yilgan.

Konvergensiya hodisasi bilan birga kechadigan nyusrumlarning faoliyat tarkibi qanday? Televideniye, matbuot singari ommaviy axborot vositalarining ish jarayoni, tarixiy amaliyot konsepsiya yig'indisi nyusrum markazlari ish faoliyatiga asos bo'lib xizmat qildi, ya'ni OAVning tarkibida yangiliklar va g'oyalar implementatsiyasini ishlab chiqaradigan "maxsus media markaz" atamasi mos keladi. Nyusrum atamasi OAVning faoliyatida amaliy jihatdan keng qo'llanilmagan yangi tizim sifatida bir qator media-korporatsiyalarda yangicha ahamiyat kasb etadi. Masalan, ba'zi mediamagnatlar (CNN, BBC) nyusrum sifatida tez efrigga beriluvchi yangiliklarni tayyorlash va montaj qilish, jarayonga yangi strategiyalar amaliyoti tushunilsa, boshqa bir guruh mediakonglomeratlar (Alphabet, Facebo-



ok, compas, Baidu, The Walt Disney company, CBS corporation, Yahoo Time Warner) ishida nyusrumlar atamasi bilan tayyor axborot mahsulotlarini tekshirish va nazoratdan o'tkazish yoki sensorlik implementatsiyasini nazarda tutadi. Shu bois turli media vositalarda nyusrum atamasining amaliyotda qo'llanishi va ish prinsiplari birmuncha kengroq. Yana bir misol: Koreya televideniyelari (Arrirang Tv, Seoul broadcasting system, OCN, Tooniverse, JTBC, MNET) ushbu atamani doimiy ravishda yangiliklarni yaratish, saralash, montaj qilish va muntazam 24/7 jaryondagi efirga berish amaliyotini uzluksiz yo'lga qo'yuvchi umumjamo'a yoki butun boshli tizimga nisbatan qo'llaydi. Ushbu jamoa intensiv yangiliklar yaratish va to'g'ridan-to'g'ri efirni nazorat qilish bilan shug'ullanadi.

Ilk marotaba 2013-yili "Jurnalist" jurnalida tilga olingan yangiliklar xonasiga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan: "...bir qancha jurnalist va turli xodimlarning umumjamoasi yakka maqsad yo'lida aynan bir oqimda suzishlari o'zaro yaqinroq hamkor sifatida faoliyat yuritishlari".

Jahonning yirik mediakorporatsiyalar faoliyat prinsipiga ko'ra tuzilgan ijodiy jarayon quyidagi tartiblarni qamrab oladi.

1. To'liq ish faoliyatini ta'minlovchi markaziy ijodxona. Barcha uchun qulay bo'lgan to'liq samaradorlikni ta'minlovchi markaziy yangiliklar xonasi tashkil qilinib, efir vaqti va sifatiga javob beruvchi jamoa bir butunlikda faoliyat olib boradi.

2. To'g'ri tarkibiy butunlikni hosil qilish. Ish jarayoni bir-biriga bog'liq bo'lgan o'zaro hamkor jurnalistlar, xodimlar va ijodkorlar bo'limlarini qulay shaklda joylashtirish. Tahririyat faoliyatida ortiqcha muhokamalarning oldini olish va ish fao-

liyatini muvofiqlashtirish maqsadida tizimni aniq yo'nalishtirish.

3. Markaziy qaror qabul qilish stoli. Odatda, muntazam ish olib boruvchi uzluksiz efir jarayoni doimiy muhokamalar hamda yig'ishlarni talab qiladi. Jamoaning barcha a'zolari bir butunlikda umummaydonga yig'ilishlari hamda muntazam ochiq suhbat yoki debatlar asosida aniq yakka qarorga kelishlari lozim. Ish jarayonini ta'minlovchi markaz faoliyatda efirdagi dasturlarga qo'shimchalar kiritish yoki butunlay kesib tashlash orqali keskin qarorlar amalga oshiriladi.

4. Yakka ijod qilish uchun qulaylik. Ish jarayoni qanchalik markazlashtirilmasin, jurnalist ijodkor xodimlar uchun o'ylab olishlari, erkin ijod qilishlari hamda yangi g'oyalar ustida bosh qotirishlari uchun aynan erkin faoliyat prinsipiga asoslangan maxsus xonalar tashkil qilish ham yoddan chiqmasligi kerak. Sababi ish jarayonining domiy shovqinda davom etishi ma'lum ma'noda sifat ko'rsatkichiga ta'sir qiladi.


Shuningdek, nyusrumlar faoliyati -90 , -180 , -270 , -360 gradusli multimedaviy tarkib tarmoqlariga bo'linadi. Masalan, -90 gradus atamasi ostida ish olib boruvchi tarkib 24 soat mobaynida yangiliklarni tuzish, kontentni tashkil qilish va doimiy efirga uzatish jarayonini ta'minlovchi jamoa faoliyati tushuniladi.

-180 gradusli yangiliklarda 24 soat efirni axborot bilan ta'minlash, boshqa manbalarga ham havolani integratsiya qilish, turli qo'shimcha yangi ma'lumotlar bazasini izlash imkoniyati ta'minlanadi.

-270 gradus faoliyati biroz kengroq tushuncha bo'lib, multimedaviy markaz faoliyatini nazarda tutadi. Barcha jurnalistlar teng tarkib va

ma'suliyat asosida ish olib borishlari shart. Eng so'nggi 360 gradus atamasi bugungi zamonaviy konvergent tahririyat faoliyatini qamrab olgani bilan ahamiyatli. Ushbu turdagi nyusrum jahon axborot kompaniyalarining multimediaviy mahsulotni yaratish va uzluksiz efirga berish uchun ixtisoslashtirilgan markaziy tarmoqlar tahririyati hisoblanadi [9]. Jahon amaliyotida 360 gradusda faoliyat olib boradigan nyusrumlar juda kam. Ushbu turdagi tahririyatlarda onlayn sayt, televideniye, radio bir vaqtning o'zida faoliyat olib boradi. Mukammal darajadagi gipermatn, sifatli videotasvir va 24 soat mobaynida yangilanib turuvchi kontent mahsulotlarini yaratishga ixtisoslashadi. Nyusrum raqamli internet portalida 360 gradusda uzluksiz ish olib boruvchi jurnalistik faoliyat yo'lga qo'yilgan. Talabalardan tashkil topgan ushbu tarkib bosma materiallar, video manbalar va maxsus mualliflik fotosuratlarini

yangiliklar tarkibiga muntazam implementatsiya qilib boradi. Yoki Apple mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi transkorporatsiyada ham markaziy "Apple newsroom" tashkil qilingan. Asosiy ish faoliyatini korporatsiya mahsulotiga oid yangiliklar topish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Nissan, Meta, Hundai, Toyota, Kia, USA Al singari korporatsiyalarning ham nyusrum markazlari mavjud. Demak, nyusrumlarning asosiy ish prinsipiga interaktiv hamkorlik – xodimlarning doimiy ravishdagi hamkorlik pozitsiyasi hamda integrativ faoliyat – hamma yo'nalishlari uzluksiz yangilanib boruvchi tarkib faoliyati bosh konsepsiya hisoblanadi. Yuqoridagi fasllarda mediaga oid barcha ixtirolar insoniyat ehtiyojidan yuzaga kelgani haqida ta'kidlagan edik. Amalda an'anaviy faoliyat olib boruvchi hamda nyusrum texnologiyasi joriy qilingan ish jarayoni o'rganilganda, quyidagi xulosalarga kelindi:





Yuqoridagi jadvalda bir qator xorijiy an'anaviy OAV hamda tarkibida nyusrumlar markazi bo'lgan mediaplatformalar tahlili berilgan. Tahlil natijasiga ko'ra, nyusrumlardagi samaradorlik muntazam oshib boruvchi ko'rsatkichga ega. Samaradorlik prinsipi har ikkala tarkibda kontentning yuqoriligi orqali amalga oshirilgan. Ammo auditoriyaning o'sishi faqat nyusrum markazlariga xosligi kuzatiladi. Yuqoridagi tahlilda nyusrumlar faoliyati samaradorligi haqida xulosa chiqarilgan. Auditoriya uchun kurashda media sohasida tobora kengayib borayotgan turli infokommunikatsion yangiliklarni faoliyatga joriy etish asosiy bozor prinsipiga aylandi. Apple, Meta, Google singari gegemon ma'lumotlar integratoriga qarshi turishda media kompaniyalar barcha usullardan samarali foydalanish va ularni imkon qadar amaliyotda keng tatbiq qilishga intiladi. Nyusrumlarning asosiy samaradorlik prinsipi bu tezkorlik, chaqqonlik hamda uzluksiz ma'lumotlar generatsiyasi hisoblanadi. So'ng-

gi yillarda mazkur ish jarayoniga sun'iy intellekt dasturlari ham integratsiya qilinib, jarayondagi yangiliklarni uzluksiz filtrlash amalga oshirila boshlandi. Nyusrumlar medianing tarkibiy qismidan alohida jurnalist, muxbir, fotosuratchilar, kamera operatorlari, ovoz yozish mutaxassislari, radio suxandonlar, grafik dizayner, muharrir singari yuzlab turli mutaxassislarni jamlaydi. Ushbu mutaxassislar turli yo'nalishlar va bo'limlardan yig'ilgan ma'lumotlarni tahrirlaydi. Yuqorida sifatleri sanalgan nyusrumlar oflayn formatda ish olib boruvchi media tahririyat markazlariga tegishli. 2020-yildan boshlab kovid pandemiyasi munosabati bilan yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyat tufayli onlayn ish olib boruvchi nyusrumlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu nyusrumlar Mac term, mini term singari onlayn platformatlarga ulanib, doimiy onlayn jarayonda ish olib boradi. Barcha kontentlar yo'lga qo'yilgan platformadagi bazalar orqali muntazam tekshirilib, nazoratdan o'tkaziladi. Onlayn formatda ish olib boruvchi

nyusrumlar so'nggi 2023–2024-yillar oralig'ida keskin o'sganini kuzatish mumkin. Turli media konglomeratlar onlayn nazorat qiluvchi markaz platformalarni tashkil qilib unga turli mamlakatlardan boshqa sohalardagi mutaxassislarining imkoniyatidan ham foydalanmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni xulosalab aytish mumkinki, insoniyat XXI asrda ro'y berayotgan keskin rivojlanish tendensiyasining markaziy fenomeni sifatida barcha voqelikning asosiy sababchisidir. Texnologik prototiplar (model, tizim, qurilma) mukammallashib, OAV transformatsiyasiga, ijodiy g'oyalarning yangi ko'rinishdagi regene-

ratsiyasi (tiklanish, qayta namoyon bo'lish qobiliyati)ga sabab bo'ldi. Konvergensiya ta'sirida turli OAV xususiyatlari o'zgarib, multimediaviylik jihatlari hamda interaktivlik shakllarini ham o'zlashtirdi. Masalan, OAVning infokommunikatsiya ta'siridagi transformatsiyasi o'zaro vazifa almashinuvi, jurnalistlarning professional mutaxassisligidagi universallashtirish, kommunikatorlarning shakl va mazmunga qarab, o'z tuzilishini o'zgartirish holatini keltirib chiqardi. Nyusrumlar jurnalistikaning multimediaviy, interaktiv shaklidagi yangi mediaga o'tish jarayoni deb talqin etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, Emmy Thomas. "Media usage of journalism students of the University of Missouri--Columbia." Diss., Columbia, Mo. : University of Missouri-Columbia, 2007. <http://hdl.handle.net/10355/5015>.
2. Cassidy, William Patrick. "May the force be with you : the influence of gatekeeping forces on the professional role conceptions of print and online newspaper journalists. 2003 y.
3. Caswell D. Automated Journalism 2.0: event-driven narratives: from simple descriptions to real stories Journal. Pract., 12 (4) (2018), P. 496.
4. Gruen, Andrew Gavin. "Accountability journalism in the digital age." Thesis, University of Cambridge, 2014. <https://ethos.bl.uk/OrderDetails.do?uin.uk.bl.ethos.708364>.
5. Gumerman, Lisa J. "Standards of Online Journalism: If and how publications use transparency, interactivity and multimedia." Ohio University Honors Tutorial College / OhioLINK, 2010. http://rave.ohiolink.edu/etdc/view?acc_num=ouhonors1275667944.
6. Graf, M., Timmerer, C., & Mueller, C. (2017, June). Towards bandwidth efficient adaptive streaming of omnidirectional video over http Design implementation and evaluation. In Proceedings of the 8th ACM on Multimedia Systems Conference. P-271.
7. <https://www.mirror.co.uk/news/world-news/breaking-spain-flooding-red-warning-34096052>
8. <https://lunchonthegrass.livejournal.com/395880.html>
9. <https://hi-news.ru/technology/nejroset-chatgpt-pishet-teksty-na-lyubuyu-temu-kak-im-polzovatsya.html>
10. <https://ria.ru/20210806/internet-1744333745.html>

SCOPUS VA WEB OF SCIENCEDA MAQOLA NASHR QILISH MUAMMO EMAS...



Faxriddin ABDIKARIMOV,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Bugungi kunda dunyo ilm-fani tez sur'atlar bilan rivojlanib, har soniyada yangi g'oyalar, nazariya va kashfiyotlar yuzaga kelmoqda. Bunday shiddatli ilmiy muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun zamonaviy olimdan chuqur nazariy bilim, puxta tayyorgarlik hamda xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritish talab etiladi. Xususan, tadqiqot natijalarini Scopus va Web of Science kabi dunyoning eng nufuzli ilmiy ma'lumotlar bazalariga indeksatsiya qilinadigan jurnallarda chop etish bugungi tadqiqotchilar uchun nafaqat maqsad, balki ilmiy zaruratga aylangan. Chunki aynan mana shunday jurnallar ilmiy baholash tizimlarining asosiy mezonlariga kiradi.



So'nggi yillarda mamlakatimizda ilmfanga, ayniqsa, yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yosh olimlar va doktorantlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator dasturlar joriy etildi, xorijiy stajirovkalar va grantlar soni oshdi. Bu esa mamlakatimizda ilmiy maqolalar soni va sifati o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda chop etilgan maqolalar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Shunga qaramay, ilmiy maqola nashr qilish jarayoni o'zining murakkab va ko'p bosqichli xususiyati bilan ajralib turadi. Bu yo'lda jurnal tanlash, maqolani xalqaro talablar asosida yozish, tahrirlash, adabiyotlar bilan to'g'ri ishlash, taqrizdan muvaffaqiyatli o'tish bularning barchasi chuqur tayyorgarlik, malaka va sabr talab qiladi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda "tez va kafolatli Scopus maqola" degan sarlavhalar ostida e'lon qilinayotgan son-sanoqsiz takliflar borgan sari avj olmoqda. Ilmiy maqolani chop etish yo'lida mutaxassislar bilim va mehnat evaziga erishishi kerak bo'lgan yutuqlar, afsuski, bugungi kunda savdo obyekti sifatida taklif qilinmoqda. Buning ortida yangi turdagi «ilmiy maqola savdosi» nomli xavfli biznes yo'nalishi shakllanmoqda.

Eng achinarlisi shundaki, bu «biznesmenlar» o'z faoliyatini aynan yosh tadqiqotchilarni nishonga olish bilan boshlashadi. Ilmiy jurnallarning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilishni bilmagan, jurnal veb-saytlarining haqiqiy-ligini tekshirish ko'nikmasiga ega bo'lmagan mualliflar bu tuzoqlarga osongina ilinmoqda.

Scopus yoki Web of Science kabi yirik ma'lumotlar bazalari nomidan foydalanib,

ko'p hollarda klon veb-saytlar orqali faoliyat yuritayotgan firibgarlar bugungi kunda katta daromad manbaiga ega bo'lgan. Ayrim mustaqil tahlillar va statistikalarga ko'ra, bunday aldovlar hisobiga yillik daromad hajmi 1-2 milliard so'mgacha yetmoqda. Bu esa nafaqat mualliflar, balki butun ilmiy hamjamiyat uchun jiddiy tahdid tug'diradi.

Holbuki, haqiqiy ilmiy izlanishning qadri mehnatda, bilimda, mustahkam tayyorgarlikda. O'zini hurmat qilgan har bir tadqiqotchi, ayniqsa, doktorant yoki mustaqil izlanuvchi hech qachon vositachilar xizmatidan foydalanmasligi lozim. Ayniqsa, Scopus indeksatsiyasiga ega jurnalni topishda hech qanday kafolat bermaydigan, shubhali tashkilotlar vositachiligida maqola yuborish bu nafaqat yengil yo'lni tanlash, balki o'zining ilmiy sha'ni, vaqti, moli-

yaviy imkoniyati va kelajagiga beparvo bo'lishdir.

Bugungi kunda mualliflarimiz asosan ijtimoiy tarmoqlarda taklif qilinayotgan quyidagi potensial xavfli jurnallarda maqolalar chop qilishmoqda:

1. Scopusdan chiqarilgan(aktiv bo'lmagan) jurnallar:

Bu jurnallar avval Scopus ma'lumotlar bazasida bo'lgan, ammo turli sabablarga ko'ra(ilmiy sifatning pasayishi, etik muammolar, ko'p miqdordagi o'z-o'zini iqtiboslash va h.k.) Scopus ma'lumotlar bazasidan chiqarib tashlangan. Afsuski, ularning ba'zilar Scopus logotipini saqlab qolgan holda faoliyat yuritishda davom etmoqda. Bunday jurnallarda chop etilgan maqolalar endi hech qanday ilmiy reyting yoki dissertatsiya jarayonida e'tiborga olinmaydi.



2. Scopus tomonidan qayta ko'rib chiqilayotgan jurnallar:

Bu jurnallar Scopus kontent bo'yicha baholovchi komissiyalar tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Bu esa ularning kelgusida indeksatsiyadan chiqarilishi ehtimolini bildiradi. Bunday jurnalda maqola chiqargan muallif keyinchalik "maqolam Scopusda chiqdi" deya ishonch bilan ayta olmaydi, chunki jurnal o'sha paytda faol bo'lmasligi va maqolasi indeksatsiya qilinmasligi mumkin.

3. Klon veb-saytga ega jurnallar:

Firibgarlar tomonidan aynan Scopus ma'lumotlar bazasidagi jurnallarning nomi, ISSN raqami va dizaynidan nusxa ko'chirilib, boshqa domen orqali klon veb-saytlar ochilmoqda. Tashqi ko'rinishda bu saytlar juda ishonchli ko'rinadi. Ushbu saytlar orqali maqola yuborish bu ilmiy karyerangizga jiddiy zarba berish bilan barobar.

Bugungi raqamli dunyoda maqola nashr qilish imkoniyatlari juda kengaygan bo'lsa-da, aynan nufuzli va ishonchli jurnalni tanlash eng muhim va hal qiluvchi bosqichlardan biridir. Quyida tadqiqotchilar, ayniqsa, yosh mualliflar uchun bir necha asosiy tavsiyalar keltiriladi:

1. Bepul nashr imkoniyatlarini izlang:

Scopus yoki Web of Science ma'lumotlar bazalariga indeksatsiya qilingan jurnallarning aksariyati pul evaziga nashr qilishni talab qilmaydi. Shunchaki sifatli va xalqaro standartlarga javob beradigan maqola tayyorlansa kifoya. Ilmiy maqolani pul to'lab nashr qilish bu har doim ham ilmiy obro'ni oshiradigan yo'l emas.

2. Taqriz(peer-review) jarayoni vaqt talab qiladi:

Normal jurnallarda maqolangiz 4 oydan 8 oygacha bo'lgan davrda ko'rib chiqiladi. Bu sog'lom ilmiy jarayon, tanqidiy baholash va takomillashuv bosqichi hisoblanadi. Taqriz jarayonining borligi jurnalning sifat belgisi hisoblanadi. Shu sababli maqolangizni yil boshida, ya'ni yanvar-fevral oylarida yuborish vaqtni unumli boshqarish uchun eng maqbul qaror.

3. Vaqt sarflanishi mumkin, ammo buning evaziga ilmiy yutuq va ishonchli maqola qo'lga kiritiladi:

Sabr bilan yondashilgan jarayon oxir-oqibatda sizga ilmiy obro', iqtibos olish ko'rsatkichi va hatto akademik martaba jihatdan kafolatli foyda keltiradi. Shoshqaloqlik yoki tez nashr qilish ilinjida firibgar veb-saytlar qurboniga aylanish esa nafaqat vaqtingiz, balki ilmiy ishonchingizga putur yetkazadi.

4. Ikkilamchi emas, birlamchi manbalarga tayaning:

Imkon qadar bir vaqtning o'zida Scopus hamda Web of Science ma'lumotlar bazalarida indeksatsiya qilinadigan jurnallarni tanlashga harakat qiling. Bunday jurnallar ko'pincha yuqori impakt-faktorli, xalqaro obro'li va sizning ilmiy reputatsiyangizni oshiradigan hisoblanadi.

Xabaringiz bor, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Ilmiy noshirlik faoliyati hamda dissertatsiyalarda ko'chirmachilikni aniqlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'iga ko'ra, ayrim bazalarga indeksatsiya qiladigan jurnallarda maqolalar chop qilish tavsiya qilinmaydi.

Scopus®



Ma'lumotlarni sun'iy oshirish yoki ma'lumotlarni hisob-kitob qilish to'g'risida ma'lumotlar o'zgartirib ko'rsatilgan bazalarda indeksatsiya qilish (Journal Impact Factor, Global Impact Factor, International Impact Factor Services, Directory of Research Journals Indexing, Open Academic Journals Index, Scientific Indexing Services, General Impact Factor, InfoBase Index, International Society for Research Activity, Scientific Journal Impact Factor, Scientific Research Publishing Inc, Academic Journals Database, Academic One File, Advanced Science Index, Impact Factor Search, Universal Impact Factor) man etiladi.

"Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi nizom"ga ko'ra, muhim ilmiy yangiliklar olgan va impakt-faktori tegishli darajada yuqori va xalqaro tizimga kirgan ilmiy jurnallarda kamida 6 ta (ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha 4

ta) ilmiy maqola chop ettirgan mutaxassisga, eksperiment tariqasida, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi berish mumkin.

Salmoqli ilmiy yangiliklar olgan va impakt-faktori tegishli darajada yuqori va xalqaro tizimga kirgan ilmiy jurnallarda kamida 12 ta (ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha 8 ta) ilmiy maqola chop ettirgan mutaxassisga, eksperiment tariqasida, fan doktori (DSc) ilmiy darajasi (ilmiy natijani amaliyotga joriy qilish bo'yicha talablar bajarilgan holda) berish mumkin.

Olimlik juda yuqori maqom hisoblanaadi. Ilmiy sohada bu darajaga erishish uchun insondan sabr, o'z ustida tinimsiz ishlash va juda katta energiya talab qilinadi. Haqiqiy ilm mevali daraxtga o'xshaydi. Daraxt serhosil meva berishi uchun vaqt va e'tibor kerak bo'ladi. Ilm daraxti ham bir kun shunday meva beradiki, uning mevasi butun insoniyat uchun yetarli bo'lishi mumkin.



Farruxjon FAYZIYEV,

Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Yuridik ta'minlash bo'limi boshlig'i

Oliy ta'lim tashkilotini boshqarishning institutsional tuzilmalari faoliyatini takomillashtirishning konseptual asoslari

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limga yangi qiyofa berish maqsadida so'nggi 8 yillikda oliy ta'lim sohasiga oid 400 dan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi[1].

Shuningdek, so'nggi 8 yil ichida yangi tashkil qilingan va transformatsiya qilingan 100 ga yaqin oliy ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning yangi institutsional tuzilmalari paydo bo'ldi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-42-son qarori bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetida Universitet faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha boshqaruv kengashi tashkil etildi[2].

Oliy ta'lim tashkiloti yuridik jihatdan uning qanday va qay asosda boshqarilishiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasasi boshqaruvi instituti shu paytga qadar yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Bundan tashqari yangi tashkil etilayotgan oliy ta'lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli qanday bo'lishiga qarab uning boshqaruvi ham keskin o'zgarib ketmoqda.

Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida Universitet rektori, Universitet Boshqaruv kengashi (moliyaviy mustaqil oliygohlarda) va Universitet ilmiy kengashi uning boshqaruv organlarini ifodalasa, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida Universitet ta'sischi, Universitet rektori, Universitet ilmiy kengashi va Universitet Vasiylik kengashi huquq va vakolatlar jihatdan bir-biriga teng emas.

Oliy ta'lim muassasalaridagi boshqaruvning joriy holati

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarining 2017-yilga kelibgina keng miqyosda ochila boshlanishi, xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarining keng tashkil etilishi mazkur institutni

keng o'rganish, uning tub mazmun-mohiyatini ochib berishni taqozo qilmoqda.

1. Amaldagi qonunchilik hujjatlari.

Oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv organi hisoblanuvchi Vasiylik (Kuzatuv) kengashiga oid masalalar quyidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan:

1) O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonunning[3] 28-moddasi birinchi qismi;

Qonunning 28-moddasiga muvofiq, ta'lim tashkilotini boshqarish kuzatuv (vasiylik) kengashi; oliy ta'lim tashkilotining kengashi; ta'lim tashkilotining rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Lekin ayni paytda moliyaviy mustaqil oliy ta'lim muassasasi rahbarlaridan biri rektorni tayinlashda huquqiy kolliziya mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

davlat oliy ta'lim tashkilotlari rektorlarini, shuningdek davlat ishtirokida tashkil etiladigan oliy ta'lim tashkilotlari (davlat ulushi bo'lgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, qo'shma ta'lim tashkilotlari, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan ta'lim tashkilotlari va boshqalar) rektorlarini (rahbarlarini) lavozimga tayinlaydi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etadi;

(O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonunning 23-moddasi birinchi qismi birinchi, o'n uchinchi xatboshilari)

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son

Farmoni[4] bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi;

Mazkur Konsepsiyaga binoan, oliy ta'lim muassasalari vasiylik kengashlari tarkibini kadrlar buyurtmachilari, yirik ish beruvchilar, jamoat arboblari va tegishli sohada katta yutuqlarga erishgan tadbirkorlar hisobidan shakllantirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish tamoyillarini joriy etish, bunda vasiylik kengashlari mas'uliyati va rolini oshirish ham alohida belgilab o'tilgan.

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining aka-

demik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son qarorining[4] 3-bandi;

Mazkur qaror bilan 2022-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy mustaqillik berilgan (ayni paytda 40ga yaqin) davlat oliy ta'lim muassasalarida vasiylik kengashlari tugatildi hamda tarkibining kamida 70 foizi tegishli vazirlik, idoralar, kadrlar buyurtmachilari, jamoatchilik vakillari va homiylardan iborat bo'lgan yuridik shaxs maqomisiz oliy ta'lim muassasalarining Kuzatuv kengashlari tashkil etildi.

Kuzatuv kengashining tarkibi tizimida oliy ta'lim muassasasi mavjud tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi (idora) tomonidan





tasdiqlanishi (1); moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasasi rektori va prorektorlari Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etilishi (2); Kuzatuv kengashi o'z vakolatlarini oliy ta'lim muassasasi kengashiga topshirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi kengashiga kiruvchi vakolatlarni o'z zimmasiga olishga haqli ekanligi (3) belgilandi.

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son qarorining[5] 6-bandi;

Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalari kuzatuv kengash-

larining asosiy vakolatlari sifatida quyidagilar sanab o'tilgan:

oliy ta'lim muassasasining uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash; oliy ta'lim muassasasining o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash; ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish; nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish; oliy ta'lim muassasasi rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash; oliy ta'lim

muassasasining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan, xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash va boshqalar.

Bu yerda asosiy e'tibor OTM moliyaviy mustaqilligining komponentlari to'liq bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan.

5) Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasasining vasiylik kengashi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2014-yil 23-maydagi 129-son qarori[6];

Mazkur qaror qabul qilinishiga O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-sonli Qonuni[7] asos sifatida keltirilgan. Mazkur Qonunning 28-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkinligi bayon qilingan.

Mazkur Hukumat qaroriga ko'ra, oliy ta'lim muassasasining vasiylik kengashi yuridik shaxs hisoblanmaydi. Kengash o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Bugungi kunga kelib umumiy soni 210 dan ortiq oliy ta'lim muassasasini boshqarishni to'g'ri tashkil etish masalasi ancha dolzarb bo'lib qoldi. Bundan tashqari mazkur oliy ta'lim muassasalari 12 ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organi va idoralar tasarrufida ekanligi ularni boshqarishda iloji boricha bir xil yondashuvni talab etmoqda. Bundan tashqari mazkur qaror bugungi kun oliy ta'lim islohotlariga to'liq hamohang bo'la olmayapti.

6) Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zi-

ni o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 2019-yil 3-dekabrda 967-son qarorining[8] 4-bandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 24 dekabrda PQ-61-son qarori qabul qilingunga qadar o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tayotgan oliy ta'lim muassasalari (10 ta) vasiylik kengashlariga berilgan 9 ta huquq oliy ta'lim tashkilotini mustaqilligi yo'lidagi inqilobiy qadarlardan bo'lgan edi.

Xorij tajribasi

Oliy ta'lim tashkilotini boshqarishda xalqaro tajriba tahlili oliy ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ayrim rivojlangan mamlakatlardagi oliy ta'lim muassasalarini boshqarish amaliyotidan muhim jihatlar keltiriladi:

A. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) tajribasi:

AQSH universitetlari aksariyati moliyaviy va akademik mustaqillikka ega. Rektor va dekanlar faoliyatini kuzatib boruvchi kuzatuv (vasiylik) kengashlari (Board of Trustees) mavjud. Mazkur organ oliy ta'lim tashkilotining oliy organi bo'lib, u universitet rektorini tayinlaydi.

Oliygozlarning reytinglari va grantlar uchun raqobat juda kuchli. Ta'lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar birgalikda yuritiladi. Talabalar va professor-o'qituvchilar fikrini inobatga olish keng tarqalgan (feedback culture).

B. Yaponiya tajribasi:

Ta'lim tizimi sanoat va iqtisodiyot ehtiyojlariga to'liq muvofiqlashtirilgan. Boshqaruvda qadimiy an'analar va zamonaviy menejment qoi-



dalari uyg'unlashgan – Universitet kengashi va oliygoh prezidenti hamkorligi to'liq yo'lga qo'yilgan. 2003-yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga[9] binoan Yaponiya universitetlari "milliy universitet korporatsiyasi"ga aylantirildi – bu ularga to'liq akademik mustaqillik berdi.

C. Singapur tajribasi:

Ta'lim strategiyasi milliy iqtisodiy strategiyaning bir qismi sifatida ishlab chiqilgan. Universitetlar davlatning strategik rejasiga binoan malaka, innovatsiya va tadqiqot markaziga aylangan. Jahon miqyosidagi olimlar va professorlarni jalb qilish uchun maxsus dasturlar mavjud.

D. Finlyandiya tajribasi:

Muvaffaqiyatli davlat siyosati yuritilib, oliy ta'lim davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi, talabalar uchun bepul. Ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik kuchli.

Strategik rejalashtirish va natijaviy boshqaruv asosida ishlaydi. Universitetlar o'z strategik maqsadlarini aniq belgilaydi va davlat bilan shartnoma asosida ishlaydi (performance agreement[10]).

Umumiy xulosalar shundan iboratki, xorij tajribasida quyidagi umumiy tendensiyalar kuzatiladi: mustaqillik va mas'uliyatning uyg'unligi; Strategik boshqaruv va natijaga yo'naltirilgan faoliyat; Talabalar va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash; Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish; Ishlab chiqarish bilan uzviy aloqadagi ta'lim.

Qonunchilikka takliflar

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida qonunchilik hujjatlari muntazam ravishda ta'limning muayyan e'tibor talab etadigan sektorlarini o'zgartirish hamda isloh qilinishi,

birinchi navbatda, zarur bo'lgan jabhalarga e'tibor qaratishi bilan xarakterlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasini Barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasining 2021-yil 8-oktyabr-dagi "Umumqamrovli, adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish (4-maqсад) bo'yicha olib borilayotgan ishlar holatini Samarqand viloyatida o'rganish natijalari to'g'risida"gi 6-son qarori qabul qilingan.

Mazkur qarorning 2-bandida "Oliy ta'lim muassasasining kuzatuv (vasiylik) kengashi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash

to'g'risida"gi qarorni yangi tahrirda qabul qilish vazifasi berilgan.

Ilg'or xorij tajribasi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning "Oliy ta'lim muassasasining Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash taklif etiladi. Mazkur qarorda quyidagilar bo'lishi zarur:

a) ushbu Namunaviy nizom O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallariga, davlat-xususiy sheriklik asosidagi oliy ta'lim muassasalariga nisbatan tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi;

b) Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalari Kuzatuv kengashlari-



ning faoliyati uning Kuzatuv kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) tomonidan tasdiqlandigan Nizom bilan tartibga solinishi;

v) Kengash tarkibiga Oliy Majlis palatalarining a'zolari, xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va idoralarning, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, ilmiy doira va ommaviy axborot vositalari vakillari, jamoatchilik vakillari, homiyar, shuningdek oliy ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan boshqa, yuridik (jumladan, kadrlar buyurtmachilari) va jismoniy shaxslar kirishi mumkinligi;

(Kengash tarkibiga Oliy Majlis palatalari a'zolari, xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari kiritiladigan holatlarda Kengash tarkibi tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga va Senatiga tasdiqlash uchun kiritiladi. Kengash tarkibiga oliy ta'lim tizimi va muassasalarini rivojlantirishga xayrixoh bo'lgan chet el fuqarolari va yuridik shaxslarining vakillari ham tasarrufida tegishli oliy ta'lim muassasasi

bo'lgan vazirlik va idora roziligi bilan kiritilishi mumkin).

g) Kengash o'z vakolatlarini oliy ta'lim muassasasi kengashiga topshirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi kengashiga kiruvchi vakolatlarni o'z zimmasiga olishga haqli ekanligi;

d) Kengash a'zolariga mazkur Nizomda belgilanmagan vakolatlariga ega bo'lishlariga, oliy ta'lim muassasasi rektorining (filiali rektorining) qonunchilik hujjatlarida belgilangan vakolatlariga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi hamda o'z navbatida Kengashning faoliyatiga oliy ta'lim muassasasi rektori, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy hokimliklar va boshqa tashkilotlar aralashuviga yo'l qo'yilmasligi bo'yicha qoidalar majburiy belgilanishi.

Loyiha qabul qilinishi munosabati bilan barcha oliy ta'lim muassasalarida uni boshqarish jarayoni to'liq tartibga tushadi, oliy ta'lim muassasasi kengashi (ilmiy kengashi) va jamoatchilik asosida ishlovchi Kuzatuv (vasiylik) kengashi kabi boshqaruv organlarining vakolatlari chegarasi aniq belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/2966>
2. <https://old.gov.uz/uz/news/view/33981>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 9, 538-modda. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021-y., 07/21/60/1177-son.
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021-y., 07/21/61/1195-son.
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 22-son, 254-modda.
7. <https://www.lex.uz/docs/16188>
8. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 09/19/967/4107-son.
9. <https://ad9.org/pegasus/znet/docs/TheProposedLaw.pdf>
10. <https://rvv.fi/en/documents-for-planning-and-monitoring>



Doniyor ALIQULOV,

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi Bosh yuriskonsulti

Oliy ta'lim muassasalarini malakali pedagog xodimlar bilan ta'minlash

O'zbekistonda ta'lim sifatini ta'minlashda pedagog xodimlarning o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda bilimli, keng dunyoqarashli, intellektual salohiyati yuqori professor-o'qituvchilarni ishga yonlash birmuncha qiyin bo'lib qolgan. Ushbu bozorning yuqori darajada qizishiga xususiy oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatlarini boshlagani sabab bo'ldi. Xususiy universitetlar ilmiy darajaga ega, yuqori salohiyatli professor-o'qituvchilarni yuqori maosh va uzoq muddatli shartnomalar bilan o'ziga jalb qilmoqda. Natijada, davlat oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda OTM) sifatli kadrlarni yo'qotishi mumkin. Bu holat tizimda pedagog kadrlar bilan bog'liq huquqiy muammolarni yanada dolzarblashtiradi.

Davlat rahbari 2024-yil 30-sentabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi institutda yetakchi pedagoglar bilan muloqotda O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun yetti asosiy yo'nalish bo'yicha vazifalarni belgilab bergandi. Ularning to'liq va sifatli bajarilishida malakali mutaxassislarining o'rnini katta. Ammo bugun ta'lim muassasalarida amalda bo'lgan pedagog-xodimlar bilan bir yil muddatga mehnat shartnomasi tuzilishi kadrlar qo'nimsizligiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq bir nechta OTMga moliyaviy mustaqillik berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi qarorining 3-bandida, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalana oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan professor-o'qituvchilarni tanlash maqsadida oliy ta'lim muassasasi hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida bir yillik muddatli shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish belgilangan. OTMga moliyaviy mustaqillik berish bilan birga professor-o'qituvchilar bilan shartnoma talablarini erkin belgilash huquqi berilgan.

OTMga moliyaviy mustaqillik berish va ularni zamonaviy kadrlar bilan ta'minlash o'rtasida muvozanatni topish hamda bu jarayonni qonun ustuvorligi asosida amalga oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekistonda mehnat qilish sohasini tartibga soladigan asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi hisoblanadi. Hozirgi zamon talablariga moslashtirish va yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun 2023-yil 30-aprelda mazkur kodeks yangi tahrirda qabul qilindi. Professor-o'qituvchilar bilan muddatli mehnat shartnomasini tuzish tartibi esa bu norma me'yorlariga zid. Vaholanki, bu tartib qonuniy kuchga kirganiga qariyb ikki yil bo'ldi, biroq ko'plab universitetlar bu amaliyotdan voz kechishmagan.

Aslida "Mehnat kodeksi" xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta'minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Chunonchi, uning 112-moddasida ish beruvchining muddatli mehnat shartnomasi tuzish huquqi cheklangan. Moddada muddatli mehnat shartnomalari:

- mehnat to'g'risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomasiga muvofiq ish joyi o'zida saqlanib qoladigan, yo'q bo'lgan xodimning majburiyatlarini bajarish vaqti uchun;
- vaqtinchalik (ikki oygacha) ishlarni bajarish vaqti uchun;
- tabiiy sharoitlar tufayli ish faqat muayyan davr (mavsum) ichida amalga oshirilishi mumkin bo'lganda mavsumiy ishlarni bajarish uchun;
- ish beruvchining odatdagi faoliyati doirasidan tashqariga chiqadigan ishlarni (rekonstruksiya qilish, montaj qilish, ishga tu-





shirish-sozlash ishlari va boshqa ishlar), shuningdek ishlab chiqarishni yoki ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmini oldindan ma'lum bo'lgan vaqtinchalik (bir yilgacha) kengaytirish bilan bog'liq ishlarni bajarish uchun;

- ta'sis hujjatlariga binoan oldindan belgilangan muddatga tashkil etilgan tashkilotlarga ishga kirayotgan shaxslar bilan;

- ishning tamomlanishi aniq sana bilan belgilanishi mumkin bo'lmagan hollarda muddatli xususiyatga ega bo'lgan, oldindan belgilangan ishlarni bajarish uchun qabul qilinadigan shaxslar bilan;

- ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish, haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini yoki stajirovkani o'tash uchun;

- mehnat organlari tomonidan vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lgan ishlarga yoki haq to'lanadigan jamoat ishlariga yuborilgan shaxslar bilan;

- muqobil xizmatni o'tash uchun yuborilgan fuqarolar bilan;

- O'zbekiston Respublikasiga uning hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qonuniy ravishda kirib kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan tuzilishi keltirilgan.

Mazkur hollarda muddatli mehnat shartnomalari doimiy ish munosabatlarini yaratish o'rniga, faqat vaqtinchalik ehtiyojlarni qondirish uchun muddatli mehnat shartnomalarni tuzishga imkon beradi. Yuqorida sanab o'tilgan holatlarda professor-o'qituvchilar bilan muddatli mehnat shartnomalarini tuzish ko'zda tutilmagan. Faqatgina istisno tariqasi-

da chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan bunday turdagi muddatli mehnat shartnomalarni tuzish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, OTMlarning professor-o'qituvchilar bilan bir yillik muddatli shartnomalar tuzish amaliyoti Mehnat kodeksining 112-moddasida batafsil keltirilgan. Bu esa o'z navbatida bunday shartnomalarning qonuniyligi masalasini ko'tarib, ularni nomuayyan muddatli shartnomalarga aylantirish uchun huquqiy asos bo'ladi.

Bundan tashqari, modda mazmunidan kelib chiqadiki, qonun chiqaruvchi muddatli mehnat shartnomalarini istisno holat sifatida ko'radi va ularni tuzish imkoniyatini juda ham cheklangan holatlarda beradi. Bu esa professor-o'qituvchilar bilan muddatli shartnomalar tuzishning noqonuniyligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 113-moddasiga ko'ra, xodimlar bilan ish beruvchi kelishuviga binoan muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar ko'zda tutilgan. Ularning ichida professor-o'qituvchilar bilan muddatli mehnat shartnomasini tuzish ko'zda tutilmagan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 111-moddasiga binoan, o'zi bilan nomuayyan muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar uchun nazarda tutilgan huquqlar va kafolatlarni berishdan bosh tortish maqsadida muddatli mehnat shartnomalarini tuzish taqiqlanadi. Ushbu modda shuni nazarda tutadiki, xodimlarni noqonuniy shartnomalar asosida himoyasiz qoldirish va ish beruvchilarning majburiyatlardan



qochishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashga qaratilgan.

Bu yondashuv xodimlarni vaqtinchalik va noaniq shartnomalarga asoslangan ish munosabatlaridan himoya qilish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shu tariqa, modda mehnat bozorida vaqtinchalik shartnomalarning suiiste'mol qilinishining oldini olish va xodimlarga doimiy ish sharoitlarini kafolatlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 112-113-moddalaridagi "boshqa qonunga muvofiq o'zga hollarda ham tuzilishi mumkin" degan jumlagacha ham aniqlik kiritib o'tsak. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi 2-qismiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlar hisoblanadi.

Muhim jihat shundaki, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, Mehnat kodeksi Prezident qarorlaridan ustun turadi. Shuning uchun ham OTM tomonidan professor-o'qituvchilar bilan bir yillik muddatli shartnomalar tuzish amaliyoti qonunga zid hisoblanadi, chunki bu amaliyot Prezident qaroriga asoslanadi, xolos.

Mehnati kodeksining 113-moddasi oxirgi qismida, Xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra muddatli mehnat shartnomasi tuzish mumkin deyilgan. Hozirgi kunda ko'plab moliyaviy mustaqillik olgan OTM pedagog xodimlarning noroziligiga qaramasdan muddatli shartnomalar tuzishda davom etishmoqda.

Agar muddatli mehnat shartnomalari tuzishda qonun talablari buzilgan bo'lsa, bunday shartnomalar nomuayyan muddatga

tuzilgan deb hisoblanadi. Bunday holatda, muddatli shartnoma tuzishning qonuniyligini isbotlash majburiyati ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Muddatli mehnat shartnomalarini tuzishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar oqibatida yuzaga kelgan yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqish chog'ida muddatli mehnat shartnomasini tuzishning asosililigini isbotlash vazifasi ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. Demak, OTMning professor-o'qituvchilar bilan bir yillik muddatli shartnomalar tuzish amaliyoti Mehnat kodeksiga zid bo'lib, bu amaliyotni to'xtatish va qonun talablariga moslashtirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga va kadrlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'qituvchilar bilan bir yillik muddatli shartnomalar tuzish noqonuniyligi bilan bir

qatorda professor-o'qituvchilar bilan tuziladigan bir yillik muddatli shartnomalar OTMda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimolini ham bir muncha oshiradi. Oliy ta'lim tizimini korrupsiyadan holi qilish uchun ham bir yillik muddatli shartnomalarni tuzish to'xtatish kerak. Shuningdek, yuqorida keltirilgan normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish lozim.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun biz xalqaro tajribaga yuzlandik. Dunyoning ta'limda ilg'or yutuqlarga erishgan Amerika Qo'shma Shtatlarida o'ziga xos tartib yo'lga qo'yilgan. AQShdagi universitetlarda o'qituvchilik uchun qo'yiladigan talablar o'qitish darajasi, o'quv muassasasi turi (masalan, tadqiqot universiteti yoki gumanitar fanlar kolleji) va o'qitiladigan fanga bog'liq. Aksariyat universitetlar o'qituvchining ta'lim olganlik darajasi hamda ilmiy yutuqlariga ko'proq e'tibor qaratadi. Shuningdek, o'qi-





tuvchilik tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qanchalik ko'p pedagogik mahorat va tajribaga ega bo'lsa, shuncha ishga qabul qilish imkoniyati oshadi.

Yuqorida keltirilgan talablar bilan bir qatorda AQSh universitetlarida "tenure track" tizimi mavjud bo'lib, bu o'qituvchilarning doimiy ish bilan ta'minlanishiga (tenure) olib kelishi mumkin. Bu o'qituvchiga ishdan bo'shatilishdan himoya beradi. Odatda, sinov muddatini o'tish (taxminan 6 yil) uchun yuqori natijalar ko'rsatish, ya'ni o'qituvchilik, tadqiqotlar va turli xil grantlarda yuqori yutuqlar talab qilindi. Shuningdek, talabgorning ilmiy yutuqlarining nashr qilinganiga ham juda katta e'tibor berishadi. Aniq bir jurnallarga chiqarilish talabi bo'lmazligiga qaramasdan, quyidagi jurnallarda, ya'ni American Sociological Review, American Journal of Sociology va Social Forces maqola chop etilsa, ishga qabul qilish imko-

niyati oshadi. Ushbu jurnallarda maqola chop etish qiyinligiga sabab tahririyat tomonidan har bitta maqola mustaqil ekspertlar tomonidan taqrizdan o'tkazilishidir.

Tenure track bo'yicha ishlagan o'qituvchi-ning faoliyati ma'lum bir muddat (odatda, 5-7 yil) o'tgandan keyin sinovdan o'tkaziladi, bu jarayon tenure review deb ataladi. Bu sinov jarayonida universitet ma'muriyati va katta professorlar ke-ngashi quyidagi jihatlarni ko'rib chiqadi:

- Tadqiqotlar va nashrlar sifati va miqdori
- O'qituvchilik mahorati
- Universitet va jamiyat uchun qilgan xizmatlari

Agar o'qituvchi barcha talablarni muvaffaqiyatli bajarsa, unga doimiy lavozim (tenure) beriladi. Bu esa ularning lavozimi barqaror bo'lishini anglatadi. Agar sinovdan o'ta olmasa, ular ko'pincha lavozimdan ketishga majbur bo'ladi.

Tenure olgandan keyin o'qituvchilar universitetda ko'proq erkinlik va xavfsizlikka ega bo'ladi, bu esa ularga uzoq muddatli ilmiy tadqiqotlar olib borish, turli xil mavzularni o'rganish va universitet rivoji uchun mehnat qilish imkonini beradi.

Bu talablar mintaqaga, o'quv muassasasi turiga va fanlarga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, san'at maktablarida o'qituvchilik qilish uchun ilmiy maqolalardan ko'ra ko'proq professional tajriba muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, Yevropaning rivojlangan davlatlari hisoblangan Germaniya va Fransiya professor-o'qituvchilar davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'lib, bu ularga quyidagi imtiyozlarni beradi:

- Doimiy ish o'rni
- Ijtimoiy kafolatlar
- Pensiya ta'minoti

Ushbu kafolatlardan ko'rishimiz mum-

kinki, Yevropada ham o'qituvchilar uchun doimiy ish o'rni ta'minlangan.

Shunday qilib, o'qituvchilar uchun qo'yiladigan talablar bir necha turli darajadagi organlar va tashkilotlar, jumladan, universitetning o'zi, professional tashkilotlar, akkreditatsiya agentliklari va davlat qonunchiligi tomonidan belgilangan. Ushbu qo'yilgan talablar nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki ilmiy izlanishlar izchilligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Nazarimizda, O'zbekistonda ham o'qituvchilar bilan kamida 5 yillik mehnat shartnomasi tuzilishi va o'zlarini ko'rsatishga imkon berilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarning maqomini va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun muddatli shartnomalar tuzish amaliyotini qayta ko'rib chiqish, Tenure track tizimini joriy etish zaruriyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Все, что вы хотите знать про американского профессора, но боитесь спросить, Лев Усыскин, ГЕФТЕР, <https://gefter.ru/archive/15193>
2. Академическая карьера в США: правила игры и мотивы осуществления (по мотивам личных наблюдений и непосредственного участия), Француз Юрий, 2005, <https://cyberleninka.ru/article/n/akademi-cheskaya-kariera-v-ssha-pravila-igry-i-motivy-osuschestvleniya-po-motivam-lichnyh-nablyudeniy-i-neposredstvennogo-uchastiya>
3. How hard is it to become a professor at US universities as an international student?, Quora, <https://www.quora.com/How-hard-is-it-to-become-a-professor-at-US-universities-as-an-international-student>
4. The adjunct underclass: How America's colleges betrayed their faculty, their students, and their mission: by Herb Childress, Chicago, Illinois, University of Chicago Press, 2019, 208 pp <https://www.researchgate.net/profile/Kayla-Schwoerer/publication/343432895>



Muhammad YO'LDASHEV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Tibbiyot yo'nalishi talabalari o'rtasida masofaviy tajriba almashinuvini takomillashtirish

Tibbiyot sohasi murakkab va ko'p bosqichli bilimlarni o'z ichiga oladi. Mazkur sohada nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shuning uchun talabalar nafaqat o'z mamlakatidagi, balki xorijiy hamkasblar bilan ham tajriba almashish orqali malakalarini oshirishi lozim. So'nggi yillarda, ayniqsa COVID-19 pandemiyasidan so'ng, masofaviy ta'lim shakllari va xalqaro onlayn tajriba almashinuvi ommalashdi. Biroq, bu jarayon bir qator muammolar va cheklovlar bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Respublikamizdagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar, magistrlar o'rtasida aloqa o'rnatish, ularni bilim, ko'nikma va tajriba almashinish imkoniyatini taqdim etish hozirgi kundagi dolzarb muammolaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda Respublikamizda Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Samarqand tibbiyot instituti, Buxoro tibbiyot instituti, Andijon tibbiyot instituti, Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filiali va Toshkent davlat tibbiyot universitetining Urganch filiali oliygohlari mavjud. Bundan tashqari Toshkent Kimyo xalqaro

universiteti, Akfa universiteti, EMU universiteti kabi nodavlat tibbiyot oliygohlari yoki tibbiyot yo'nalishi mavjud bo'lgan nodavlat oliy ta'lim muassasalari mavjud [5]. Bularda esa minglab talabalar tahsil olishmoqda. Tibbiyot talabalari uchun eng muhim o'rganish vositalaridan biri bu bilim va tajribadir. Shuning uchun tibbiyot talabalari aksariyat bilim olish vaqtlarini ilmiy tadqiqot institutlari, klinikalar, poliklinikalar va shu kabi tibbiyot tashkilot va muassasalarida real hayotda o'rganishadi. "Masofaviy tibbiy kengash va maslahat" axborot tizimi orqali talabalarga ushbu bilim va tajribalarni masofadan almashinish imkoniyatini taqdim etishi mumkin.



Masofaviy tajriba almashinuvi tushunchasi va ahamiyati

Masofaviy tajriba almashinuvi — bu tibbiyot yo'nalishidagi talabalar va mutaxassislar o'rtasida onlayn platformalar orqali bilim, amaliy ko'nikma va kasbiy tajriba almashish jarayonidir. Bu jarayon zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi va quyidagi afzalliklarga ega: xalqaro tajribaning osongina qo'lga kiritilishi; xarajatlarni kamaytirish; har qanday joydan ishtirok etish imkoniyati; turli murakkab tibbiy holatlarining masofaviy muhokamasi.

Masofaviy tajriba almashinuvidagi asosiy muammolar

Texnik muammolar: Talabalar yoki o'quv dargohlarida Internet tezligining pastligi, zamonaviy qurilmalarning yetishmasligi jarayonning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning yetishmasligi: Virtual muhitda real bemorlar bilan ishlash imkoniyati cheklangan. Bu esa tibbiyot talabalarining amaliy malakasini to'liq shakllantira olmaydi. Til va madaniyat to'siqlari: Xalqaro platformalarda asosan ingliz tilida muloqot yuritilishi ko'plab talabalarga qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek, har bir mamlakatning sog'liqni saqlash tizimi va etik me'yorlarida farq mavjud [2]. Motivatsiya va nazoratning sustligi: Masofaviy formatda talabalarni doimiy rag'batlan-



tirish va ularning faol ishtirokini nazorat qilish murakkab bo'lib qolmoqda.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari

Texnik infratuzilmani rivojlantirish: Universitetlar va tibbiyot oliygohlari zamonaviy texnik vositalar (virtual laboratoriyalar, simulyatsiya qurilmalari) bilan ta'minlanishi zarur. Interaktiv platformalardan foydalanish: Zoom, Microsoft Teams, Moodle, MedAll, Proximie kabi platformalar yordamida interaktiv onlayn mahorat darslari, jarrohlik simulyatsiyalari o'tkazilishi mumkin [3]. Sun'iy intellekt va VR texnologiyalarini joriy etish: Al asosidagi diagnostik tizimlar va Virtual Reality (VR) yordamida talabalar amaliy ko'nikmalarni masofadan turib egallashi mumkin. Tilni o'rgatish va moslashtirish dasturlarini ishlab chiqish: Xalqaro hamkorlik uchun ingliz tilini chuqurlashtirilgan o'qitish, shuningdek, sog'liqni saqlashga oid terminologiyalar bo'yicha onlayn kurslar yo'lga qo'yilishi kerak [4]. Talabalarni baholashning yangi usullarini ishlab chiqish: Masofaviy baholash usullari (videoportfolio, interaktiv testlar, peer-review asosida baholash) orqali talabalar bilimlari sinovdan o'tkazilishi mumkin.

*“Masofaviy tibbiy kengash va maslahat” axborot tizimining tibbiyot talabalari moduli – O'zbekistondagi Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlariga **Masofaviy tajriba almashinuvidagi muammoga yechim bo'lishi mumkin.***

Tibbiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni o'zaro masofaviy tajriba almashinish imkoniyatini yaratadigan “Katta hajmli tibbiy ma'lumotlarni qayta ishlovchi masofaviy tibbiy kengash va maslahat axborot tizimi” ishlab chiqish va joriy etish orqali muammoni

hal etish. Bunda masofaviy tibbiy kengash va maslahat axborot tizimida **“Talabalar tibbiy kengashi va maslahat” modulini** yaratish yordamida tibbiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning o'zaro mahalliy va xorijiy talabalar masofaviy amaliyotini tashkil etishning bir qismi sifatida qarashimiz mumkin. “Talabalar tibbiy kengashi va maslahat” modulini ishlash mexanizmi quyidagicha tashkil etiladi. Axborot tizimida maxsus “tibbiyot talabalari” havolasi joylashtiriladi. Mazkur havola yordamida tizimga kirish yoki ro'yxatdan o'tish formasi ochiladi. Ro'yxatdan o'tish formasi quyidagicha qadamlar ketma-ketligida shakllanadi: Talaba F.I.O kiritiladi (majburiy maydon), Talaba tug'ilgan sanasi kiritiladi(majburiy maydon), Talaba rasmi yoki avatar (ixtiyoriy maydon), Talaba email manzili (majburiy maydon), Talaba telefon raqami(ixtiyoriy maydon), Talaba ta'lim olayotgan davlat tanlanadi, Talaba ta'lim olayotgan tibbiyot oliy ta'lim tashkiloti kiritiladi(agar O'zbekistondagi tibbiyot oliy ta'lim tashkiloti bo'lsa, ro'yxatdan tanlanadi), Ta'lim darajasi tanlanadi (bakalavr, magistratura, ordinatura), O'qiyotgan ta'lim yo'nalishi kiritiladi(agar O'zbekistondagi tibbiyot oliy ta'lim tashkiloti bo'lsa, ro'yxatdan tanlanadi), Ta'lim kursi tanlanadi. Axborot tizimida talabalar tibbiy kengashida qaysi soha bo'yicha ishtirok etishi mumkinligi tanlanadi (faqat ikkita yo'nalishni tanlashi mumkin, misol uchun, pediater, kardiolog, urolog, travmatolog, okulist. v.k).

Forma to'ldirilgandan so'ng, tizim akkaunt hisobini tasdiqlash uchun email manziliga tasdiqlash kodi yuboriladi va talaba kod bilan tasdiqlab ro'yxatdan o'tishni yakunlaydi. Shu



tartibda O'zbekistondagi barcha tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari talabarlari mamlakatning turli hududlaridagi tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan ro'yxatdan o'tib, mutaxassis talabalar ro'yxati shakllantiriladi. Har bir tibbiyot oliy ta'lim tashkilotidan professor-o'qituvchilardan moderator sifatida birlashtiriladi. Ushbu moderator roliga bir martalik va doimiy talabalar tibbiy kengashini axborot tizimida tashkil etish imkoniyati beriladi. Moderator ma'lum bir yo'nalishda, aytaylik, Kardiologiya kasalligi bo'yicha ma'lumotlarni, Bemorning barcha shaxsiy, simptomatik-holat va tahliliy-tekshiruv ma'lumotlarini kiritib, talabalar tibbiy kengashini tashkil etadi. Talabalar tibbiy kengashi tashkil etilgandan so'ng, guruhlar o'rtasida, fakultetlar o'rtasida, oliy ta'lim mu-

assasasi, respublika tibbiyot oliygohlari yoki xalqaro tibbiyot oliygohlari talabalaridan iborat bo'lgan guruh shakllantiradi. Misol uchun: Toshkent davlat tibbiyot universiteti kardiologiya mutaxassisligida o'qiyotgan talabalardan 3 ta, Samarqand tibbiyot universitetidan 3 ta, Andijon tibbiyot universitetidan 2 ta, Buxoro davlat tibbiyot institutidan 2 ta va jami 10 kishidan iborat bo'lgan talabalar tibbiy kengashi shakllantiriladi. Asosiy shifokor va moderator Toshkent tibbiyot universiteti Kardiologiya bo'yicha professor-o'qituvchisi. Moderator Bemor ma'lumotlarini kiritadi: bunda asosan tashhis qo'yish o'ta og'ir holatlardagi bemorlarning simptomlari va holati kiritilishi maqsadga muvofiq. Sodda namuna sifatida quyidagi jadvallar shakllantiriladi.

T/r	Bemorning shaxsiy va fizik ma'lumot turi	Ma'lumot qiymati
1	F.I.O	Ahmadov Jasur
2	Tug'ilgan yili	1955-yil 2-aprel
3	Jinsi	Erkak
4	Tug'ilgan joyi	Andijon viloyati
5	Yashash joyi	Toshkent shahri
6	Tana vazni	96 kg
7	Bo'y uzunligi	165 sm

1-jadval: Bemor shaxsiy va fizik ma'lumotlari

T/r	Simptomlar belgilari	Bemordagi holat
1	Og'riq (angina yoki yurak xuruji belgisi):	Jismoniy faollikdan so'ng kuchayadi, dam olganda kamayadi
2	Nafas qisishi:	Ayniqsa, jismoniy faollik yoki zinapoyaga chiqishda
3	Charchoq va kuchsizlik:	Odatdagi ishni qilishda tez charchash
4	Ko'ngil aynishi, sovuq ter bosishi, bosh aylanishi:	Kam-kam
5	Yurak urishining notekisligi	Yurak tez urishi
6	Uyquda yoki yotgan holatda nafas olishda qiynalish	Yurak yetishmovchiligining belgisi

2-jadval: Bemor simptomatik-holat ma'lumotlari

Tahlil nomi	Normal qiymat	Yurak xuruji bo'lganda taxminiy natija
Troponin I/T	< 0.04 ng/mL	> 0.4–10.0+ ng/mL — sezilarli oshgan
CK-MB	< 5 ng/mL	10–50 ng/mL — yurak mushaklarining shikasti
LDL (yomon xolesterin)	< 100 mg/dL	130–190 mg/dL — ateroskleroz xavfi yuqori
HDL (yaxshi xolesterin)	> 40 mg/dL (erkaklar), >50 (ayollar)	30–35 mg/dL — past (xavf omili)
Triglitsridlar	< 150 mg/dL	> 200 mg/dL — yuqori
Glyukoza (qonda qand)	70–99 mg/dL (och qoringa)	110–180 mg/dL — giperlikemiya yoki diabet
CRP (C-reaktiv oqsil)	< 3 mg/L	> 10 mg/L — yallig'lanish borligini ko'rsatadi

3-jadval: Tahlil va tekshiruv ma'lumotlari

Tekshiruv nomi	Normal holat tavsifi	Yurak xurujida yoki YIKda kuzatiladigan o'zgarish
EKG (Elektrokardiogramma)	Tinch yurak ritmi, ST segment normal	ST segment ko'tarilishi yoki tushishi, T-to'lqinda o'zgarish, aritmiyalar
Ekokardiyografiya (ECHO)	Yurak mushaklari yaxshi qisqaradi	Qisqarishda buzilish, infarkt zonasida gipokineziya yoki akineziya
Stress-testi (yuklama bilan EKG)	Normal yuklamada yurak barqaror	Yuklamada ST segmentda tushish yoki simptomlar paydo bo'lishi
Koronar angiografiya	Koronar tomirlar ochiq, qon oqimi yaxshi	Bir yoki bir nechta arteriyada 50–90% torayish
Holter EKG (24 soatlik)	Yurak ritmi barqaror	Aritmiyalar, ST segmentda o'zgarishlar
ABPM (qon bosimi monitoringi)	120/80 mmHg oralig'ida	Ko'p hollarda gipertenziya — 140/90 dan yuqori

4-jadval: Instrumental tekshiruvlar

Keyingi qadamda 3 ta jadvaldagi ma'lumotlar moderator tomonidan 10 ta mutaxassis talabaga yuboriladi. Talaba tizimga kirib, 3 ta formadagi ma'lumotlarni o'rganib tahlil qiladi.

Talabalar tahlil va fikrlarini aniq qiymat, foiz va izoh ko'rishida qoldirishi mumkin. Bir talaba

bergan tibbiy xulosani boshqa talaba ko'rishi mumkin bo'ladi, faqat moderator ruxsati bilan.

Tashxislar	T1	T2	T3	T4	T5	T6	T7	T8	T9	T10
ST segment ko'tarilishi bilan kechuvchi oldingi devor miokard infarkti (STEMI)	70%	60%	90%	50%	60%	80%	70%	50%	80%	90%
Arterial gipertenziya, II daraja	10%	20%	10%	40%	20%	20%	10%	20%	0%	10%
Giperlipidemiya (LDL, HDL, TG)	10%	10%	0%	0%	10%	0%	10%	10%	0%	0%
Glyukoza intoleransi (diabet xavfi)	10%	10%	0%	10%	10%	0%	10%	20%	20%	0%

5-jadval. Talabalar tibbiy kengashi a'zolarining tahlillarini hisoblashning sodda algoritm ko'rinishi jadvali

Tashhislar	Ehtimoliy tashhis ko'rsatkichi
ST segment ko'tarilishi bilan kechuvchi oldingi devor miokard infarkti (STEMI)	70 %
Arterial gipertenziya, II daraja	16 %
Giperlipidemiya (LDL ↑, HDL ↓, TG ↑)	5 %
Glyukoza intoleransi (diabet xavfi)	9 %

6-jadval. 5-jadvaldagi natijalarning umumiy ko'rsatkichlari

Barcha talabalar kengashining tibbiy xulosa va fikrlari olingandan so'ng, moderator asosiy shifokor yakuniy xulosa va qarorni e'lon qiladi. Yakuniy xulosa: Bemorning klinik va laborator ko'rsatkichlari yurak xuruji (miokard infarkti) tashhisini tasdiqlaydi. Koronar angiografiya orqali muhim tomirda torayish aniqlanib, shoshilinch davolovchi choralar ko'rilgan. Holati barqarorlashgan. Qo'shimcha kuzatuv, parhez, jismoniy faoliyatni nazorat qilish va dorilarni muntazam qabul qilish tavsiya etiladi.

Tavsiya etilgan davolash: Shoshilinch: Koronar angioplastika va stentlashni (PCI) amalga oshirish. Antiplateletlar: Aspirin, Klopidoqrel. Statin: Atorvastatin Beta-blokator:

Bisoprolol ACE inhibitor: Ramipril Antikoagulyant: Enoksaparin (xastalikning ilk bosqichida). Shu tartibda tibbiyot talabalari masofaviy tajriba almashinishi va ko'nikmalarni o'zlashtirishi mumkin. Bu nafaqat respublika, balki xalqaro tibbiyot oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ham amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Yuqoridagi holatda sodda ko'rinish faqat foiz qiymatlarda umumlashtirib yakuniy xulosa qilindi. Aslida talabalar murakkab bo'lgan holatlarda izohli fikr yozishi, audio va video murojaat qilishi, Onlayn uchrashuvlar belgilash mumkin.

Amaliy tavsiyalar: Har bir tibbiyot universitetida masofaviy hamkorlik bo'limi tashkil etilishi; Har chorakda xalqaro onlayn amaliyot

dasturlarini tashkil etish; "Virtual klinik amaliyot" modullarini o'quv rejasiga kiritish; Talabalarining xalqaro ko'nikmalarini oshirish uchun grant va stipendiyalar sonini ko'paytirish; Masofaviy monitoring va tahlil tizimlarini joriy etish. "Masofaviy tibbiy kengash va maslahat" axborot tizimining "Tibbiyot talabalari" modullini ishlab chiqish va amaliyotga, o'quv-amaliy jarayoniga tatbiq etish. Mahalliy va xalqaro tibbiy talabalar o'rtasida masofaviy amaliyotni tashkil etish.

Xulosa: Tibbiyot sohasida masofaviy tajriba almashinuvi – global raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biridir. Uni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish uchun texnik, metodik, til va madaniy to'siqlarni bartaraf etish zarur. Shu orqali tibbiyot talabala-

rining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, ularning global sog'liqni saqlash tizimiga integratsiyasini ta'minlash mumkin.

"Masofaviy tibbiy kengash va maslahat" axborot tizimining "Tibbiyot talabalari" modullini ishlab chiqish va amaliyotga, o'quv-amaliy jarayoniga tatbiq etish. Hech bo'lmaganda, haftada bir marta talabalar tibbiy kengashini tashkil etish, murakkab bo'lgan bemor holatini muhokama qilib, yakuniy va to'g'ri xulosa chiqarishni yo'lga qo'yish kerak. Ushbu amaliyot tibbiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarlarni bilim, ko'nikma va tajriba almashishini va murakkab holatlarda tez, to'g'ri va aniq qaror qabul qilish qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Almarzooq, Z., Lopes, M., Kochar, A. "Virtual Learning During the COVID-19 Pandemic": A Disruptive Technology in Graduate Medical Education. 75-son 2020-yil. 2635-2638. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32304797/>
2. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti qo'llanmasi. Digital education for building health workforce capacity: WHO guideline. Geneva: 2021-yil 10-13 betlar. WHO. <https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/331524/9789240000476-eng.pdf?sequence=1>
3. Rajab, M. H., Gazal, A. M., Alkattan, K. (2020). Challenges to Online Medical Education During the COVID-19 Pandemic. Cureus jurnali, 6-8 betlar. https://www.researchgate.net/publication/342653195_Challenges_to_Online_Medical_Education_During_the_COVID-19_Pandemic DOI: 10.7759/cureus.8966
4. Proximie kompaniyasi rasmiy saytida kompaniya tomonidan e'lon qilingan maqola. Virtual ablation: Unlocking critical remote cancer treatment during COVID-19. [Online]. 2022-yil 4-mart. <https://www.proximie.com/blog/virtual-ablation-unlocking-critical-remote-cancer-treatment-during-covid-19>
5. <https://stat.edu.uz/> - oliy ta'lim muassasalari statistikasi va ochiq ma'lumotlar portal



Masofaviy ta'lim yangi tajribami?

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va Internetning keng rivojlanishi global ta'lim tizimini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, pandemiya paytlari dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalari-ning masofaviy ta'limdan boshqa imkoniyatlari yo'q edi. Keyinchalik bu ta'lim shakli nafaqat vaqtinchalik yechim bo'ldi, balki samarali ta'lim shakliga ham aylandi. Bu sizga uyingizdan turib ham diplom olish imkoniyatini berishi mumkin. Masofaviy ta'lim – bu zamonaviy onlayn platformalar orqali dunyoning istalgan hududidan turib, istalgan vaqtda darslarni o'zlashtirish imkonini beradigan ta'lim shaklidir. Ushbu tizim o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida masofa bo'lgan hollarda, ayniqsa, qulay bo'lib, texnologik vositalar yordamida ularning orasidagi uzoqlikni bartaraf etadi. Natijada, o'quvchi jismoniy joylashuvdan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Endi Stanford universiteti misolida masofaviy ta'limni ko'rib chiqamiz.

Stanford universiteti Amerika Qo'shma Shtatlarining Kaliforniya shtatida joylashgan yetakchi xususiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Universitet 1885-yilda tashkil etilgan bo'lsa-da, rasmiy faoliyatini 1891-yilda boshlagan. Uning ochilishiga asosiy sabab universitet asoschilari Leland va Jane Stanfordning 15 yoshida ich terlama kasalligidan vafot etgan o'g'illari xotirasini abadiylashtirish bo'lgan. Bugungi kunda Stanford universitetda 16 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda. Dunyoga mashhur bo'lgan ko'plab innovatsion g'oyalar aynan shu yerda tug'ilgan. Masalan, Google kompaniyasining konsepsiyasi doktorantura bosqichida o'qiyotgan Lawrence Edward Page va Sergey Brin tomonidan shu universitetda ishlab chiqilgan. Stanford universiteti nafaqat an'anaviy ta'limda, balki masofaviy o'qitish sohasida ham ilg'or hisoblanadi. 2012-yilda ular Stanford online platformasini ishga tushirib,

zamonaviy raqamli ta'lim imkoniyatlarini ham kengaytirdi. Stanford Online butun dunyo bo'y-lab bilim olish istagidagi o'quvchilarga yangi ko'nikmalarni egallash, bilimlarini kengaytirish va Stanford tomonidan tan olinadigan sertifikatga ega bo'lish imkoniyatini taqdim etadi. Platforma orqali taklif etilayotgan akademik va professional ta'lim dasturlari to'g'ridan-to'g'ri Stanford universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda onlayn yoki an'anaviy tarzda taqdim etiladi. Mazkur platformada magistratura darajasidagi dasturlar, kreditga ega bo'lgan sertifikat kurslari, professional rivojlanish va korporativ o'quv dasturlari, shuningdek, umrbod ta'lim (lifelong learning) yo'nalishlari mavjud. Bularning barchasi tinglovchilarga nafaqat martaba o'sishi-ni ta'minlash, balki shaxsiy rivojlanishga ham ko'maklashadi. Stanford Onlinening faoliyati Stanford Muxandislik maktabi tarkibidagi Global va Onlayn Ta'lim Markazi (CGOE) tomonidan boshqariladi. CGOE — global miqyosdagi





onlayn va kengaytirilgan ta'lim sohasida yetakchi markaz hisoblanadi. Markaz Stanford universiteti o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi va sertifikatlangan ta'lim dasturlarini onlayn, an'anaviy yoki gibrid shakllarda ishlab chiqib, ularni butun dunyo tinglovchilariga yetkazib beradi.

Masofaviy ta'lim shakllari

Asinxron ta'lim – bu o'zingiz qulay vaqtda o'qishingiz mumkin bo'lgan ta'lim shaklidir. Bunda darsliklar oldindan yozilgan materiallarni istalgan vaqt ko'rib, dars qilish imkoniyatini beradi.

Sinxron ta'lim – bunda barcha talabalar va o'qituvchi real vaqt rejimida videokonferensiya orqali jonli dars olib borishadi.

Gibrid ta'lim – onlayn va an'anaviy ta'limning aralashma shakli, bunda ba'zi darsliklar Internet orqali masofadan olib boriladi, qol-

ganlari universitet yoki maktab binolarida yuzma-yuz shaklda o'tkaziladi.

MOOC (Massive Open Online Courses)

– keng ommaga ochiq bepul yoki pullik onlayn darsliklar hisoblanadi. Masalan, Stanford Online, Coursera hamda shu kabi platformalar kiradi.

Mobil ta'lim – bu o'quv jarayoni smartfon, planshet va boshqa shu kabi mobil qurilmalarda olib boriladigan dars jarayoni. Bunda darsliklarni mobil ilova va brauzerlardan olishingiz mumkin. Bu ta'lim turi vaqt va joy tanlamaydi, siz istalgan vaqtda hamda istalgan joyingizdan darsliklarni o'zlashtirib borishingiz mumkin bo'ladi.

Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar – bu turdagi masofaviy ta'lim texnik, ilmiy yoki sog'liqni saqlash sohalarida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Unda

talabalar real tajribalar o'rniga virtual muhitda laboratoriya ishlari yoki simulyatsiya orqali mashqlarni bajarishlari mumkin.

Stanford universitetining masofaviy ta'lim yo'nalishlari

Stanford universiteti masofaviy ta'lim orqali keng qamrovli va zamonaviy yo'nalishlarda bilim olish imkoniyatini beradi. Quyidagi sohalarida ta'lim dasturlari mavjud: muhandislik, sun'iy intellekt, informatika va kiberxavfsizlik, yetakchilik va biznesni transformatsiya qilish, energetika va barqarorlik, ma'lumotlar ilmi, tibbiyot va sog'liqni saqlash.

Ushbu yo'nalishlar orqali o'quvchilar na faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishadi, balki o'zlarining amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishlari mumkin.

Stanford universitetining ishonch yorliqlari

Xo'sh, kursni tugatdim, endi menga kursni tugatganim haqida qanaqadir sertifikat beriladimi, degan savol berishingiz tabiiy. Stanford universiteti masofaviy ta'lim dasturlari bo'yicha quyidagi turdagi ishonch yorliqlarini taqdim etadi.

1. Record of Completion – ma'lum bir qisqa onlayn kursni tamomlaganlikni tasdiqlovchi oddiy hujjat. Ushbu hujjat rasmiy baholash yoki akademik kreditni o'z ichiga olmaydi. Faqat kurs ishtirokchisi barcha darslarni ko'rganini ko'rsatadi.

2. Certificate of Completion – kursni muvaffaqiyatli tugatganlikni tasdiqlovchi rasmiy sertifikat. Bu sertifikat pullik kurslar uchun be-



riladi, lekin, odatda, universitet kreditini bermaydi. U professional portfelingizda foydalanish uchun mos keladi.

3. *Certificate of Achievement* – kursni faqat tugatish emas, balki belgilangan mezonlar asosida yuqori natijalar bilan yakunlagan talabaga beriladi. Bu sertifikat ko'proq akademik yutuqni ifodalaydi.

4. *Professional Certificate* – o'z sohasida chuqur bilim olishni istagan mutaxassislar uchun mo'ljallangan. U bir nechta bog'liq kurslardan tashkil topgan bo'lib, to'liq dasturni tugatganlarga beriladi. Bu turdagi sertifikatlar ko'pincha malaka oshirishda va ish joyida ko'tarilishda muhim rol o'ynaydi.

5. *Stanford University Transcript* – rasmiy akademik hisobot bo'lib, unda o'qilgan kurslar, ularning kredit miqdori va olingan baholar aniq ko'rsatiladi. Faqat rasmiy Stanford kurslarini kredit asosida o'qiganlarga beriladi. Bu hujjat boshqa oliygohlarga topshirishda yoki ishga joylashishda muhim hujjat hisoblanadi.

6. *Graduate/Undergraduate Certificate* – bakalavr yoki magistratura darajasidagi rasmiy akademik dasturlarni tamomlagan talabalarga beriladi. Ushbu sertifikatlar muayyan sohadagi bilim va ko'nikmalarni chuqur egalaganlikni tasdiqlaydi. Kredit asosida o'qiladi va universitet transkripti bilan birga yuritiladi.

7. *Stanford University Degree* – universitetning to'liq bakalavriat, magistratura yoki doktorantura dasturini tamomlagan talabalarga beriladigan rasmiy diplomdir. Bu eng yuqori akademik daraja hisoblanadi va xalqaro miqyosda tan olinadi.

Stanford universitetining masofaviy ta'limiga talabi

Sizda bu masofaviy ta'limda o'qish xohishingiz paydo bo'ldi, ammo menga qanday talablar qo'yiladi degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Bu, albatta, siz tanlagan yo'nalish va kursga bog'liq bo'ladi. Masalan: "Fuqarolik va atrof-muhit muhandisligi bo'yicha magistrlik sertifikati" yo'nalishida o'qishingiz uchun birinchidan arxitektura, muhandislik yoki qurilish (AEC – Architecture, Engineering and Construction) sohalarida umumiy tushuncha va bilimga ega bo'lishi lozim. Ushbu yo'nalishlarda ilgari ishlaganlik, amaliy tajriba yoki kasbiy ishtirok afzallik sifatida qaraladi. Ikkinchidan, dasturga ariza topshiruvchi nomzod kamida bakalavr (Bachelor's degree) darajasiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, bakalavriatdagi o'rtacha bahosi (GPA) 4.0 tizim bo'yicha kamida 3.0 bo'lishi zarur. Bu akademik jihatdan kuchli tayyorgarlik talab etilishini bildiradi.

Yana bir misol sifatida "Sun'iy intellekt bo'yicha kasbiy dastur" bo'yicha talablarini keltirib o'tmoqchiman. Dasturda ishtirok etishdan oldin nomzod qisqa ariza shaklini to'ldirishi zarur. Bu jarayon taxminan 15–20 daqiqa vaqt oladi. Arizada siz o'z qiziqishingiz haqida ma'lumot berasiz hamda kurs uchun zarur bo'lgan boshlang'ich bilimlarga ega ekanligingizni tasdiqlaysiz. Dasturda muvaffaqiyatli qatnashish uchun nomzodda muayyan texnik va akademik tayyorgarlik bo'lishi zarur. Avvalo, u Python dasturlash tilini yaxshi bilishi kerak, chunki barcha kodlash topshiriqlari aynan shu tilda bajariladi. Shuningdek, ayrim vazifalarni bajarish uchun Linux operatsion ti-



zimida buyruq satri orqali ishlash ko'nikmasi ham talab qilinadi. Bundan tashqari, nomzod matematikaning hisoblash (hisoblash matematikasi) va chiziqli algebra bo'limlari bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ko'p o'zgaruvchilik funksiyalaridan hosila olishni bilishi, matritsa va vektorlar ustida amallarni tushunishi lozim. Shuningdek, ehtimollar nazariyasi bo'yicha ham asosiy tushunchalarga ega bo'lish zarur. Nomzod ehtimollik taqsimotlarining asosiy turlarini (masalan, Gauss taqsimoti, Bernulli taqsimoti va boshqalar) bilishi, shuningdek, uzluksiz va diskret tasodifiy o'zgaruvchilar bilan bog'liq tushunchalarni (matematik kutilma, mustaqillik, zichlik funksiyasi, taqsimot funksiyasi) farqlay olishi kerak.

Stanford Online ta'lim platformasidagi kurslar

1. Magistratura darajasidagi ta'lim (Graduate Education). Bu bo'lim Stanford universitetining rasmiy diplom dasturlarini va individual magistratura darajasidagi kurslarni o'z ichiga

oladi. Ular asosan ilmiy va texnik sohalarda chuqur bilim berishga yo'naltirilgan. Ushbu kurslarda qatnashish uchun ba'zida bakalavr diplomi yoki boshqa talablar kerak bo'ladi. Yo'nalishlar quyidagilardan iborat: sun'iy intellekt (Artificial Intelligence), kompyuter fanlari (Computer Science), ma'lumotlar fani (Data Science), boshqaruv fanlari (Management Science and Engineering).

2. Kasbiy rivojlanish uchun ta'lim (Professional Education). Ushbu bo'lim ish tajribasiga ega mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Kurslar amaliy bilim va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan bo'lib, qisqa muddatli bo'ladi. Dasturlar, odatda, sertifikat bilan yakunlanadi va masofadan turib o'qish imkonini beradi. Asosiy yo'nalishlar: raqamli strategiya va marketing, liderlik va innovatsiya, tadbirkorlik va mahsulot dizayni (Design Thinking), loyiha boshqaruvi (Project Management).

3. Korporativ ta'lim dasturlari (Enterprise Education)

Bu yo'nalish yirik kompaniyalar va tashkilotlar uchun ishlab chiqilgan. Maqsadi esa xodimlarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash. Stanford kompaniya ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus treninglar ham taklif etadi. Bu ta'lim turiga quyidagilar kiradi: maxsus buyurtma asosida tuzilgan o'quv dasturlari, onlayn vebinarlar va interaktiv mashg'ulotlar, jamoaviy treninglar.

4. Bepul onlayn kurslar

Stanford Online platformasida bepul kurslar ham mavjud. Ular ochiq onlayn ta'lim (MOOC) shaklida taqdim etiladi va istalgan foydalanuvchi ro'yxatdan o'tib, ulardan foydalanishi mumkin. Kurslar quyidagi mavzularda bo'ladi: inson miyasi va psixologiyasi, dasturlash asoslari, innovatsion fikrlash (Innovative Thinking), etika, tibbiyot, ijtimoiy fanlar.

Masofaviy ta'lim kurslari narxlar

Stanford universitetining masofaviy ta'lim dasturlari uchun to'lov miqdori kursning kredit birligiga qarab belgilanadi. Har bir kurs ma'lum miqdordagi "unit" (kredit birligi) asosida tuziladi va narxlar ushbu birlikka ko'ra hisoblab chiqiladi. Quyidagi tariflar hozirda amal qilayotgan standart narxlar asosida taqdim etilmoqda:

3 kreditli kurs narxi: \$4542

4 kreditli kurs narxi: \$6056

5 kreditli kurs narxi: \$7570

Agar siz butun bir sertifikat dasturini tamomlamoqchi bo'lsangiz, unda umumiy to'lov quyidagicha belgilanadi:

12 kreditli magistrlik sertifikati narxi (Graduate Certificate): \$18,168

16 kreditli magistrlik sertifikati narxi: \$24,224

To'lov miqdori tanlangan kursga va universitet siyosatlariga qarab o'zgarishi mumkin. Ba'zi dasturlar uchun moliyaviy yordam yoki ish beruvchi orqali to'lovni qoplash imkoniyati mavjud.

Stanford masofaviy ta'limi nega ishonchli?

Stanford tomonidan berilgan onlayn diplom va sertifikatlar xalqaro miqyosda tan olinadi, bunga sabab universitet Amerika Qo'shma Shtatlarining WASC (Western Association of Schools and Colleges) akkreditatsiyasiga ega. Hozirda rasmiy nomi WSCUC (Western Senior College & University Commission) nomiga o'zgargan, bu G'arbiy mintaqaviy akkreditatsiya tashkiloti tomonidan beriladigan sifat kafolatidir. U universitet yoki kollejning ta'lim sifati, boshqaruv tizimi va moliyaviy barqarorligini tan oladi. Shuningdek, bu akkreditatsiya moliyaviy yordam olish imkoniyatini, diplom tan olinishini, ishonchli boshqaruv, ya'ni universitetda halollik, shaffoflik samaradorlik borligini isbotlaydi.

Stanford masofaviy ta'lim dasturi kimlar uchun qulay:

– ish bilan band shaxslar, ya'ni hozirda ishlaydi, ammo sohasi bo'yicha qo'shimcha bilim o'zlashtirmoqchi bo'lganlar uchun;
– geografik cheklolarga ega bo'lganlar;
– qo'shimcha bilim olib boshqa sohaga yo'nalmoqchi bo'lganlar uchun.

Xulosa qilib aytganda, Stanford universitetida masofaviy ta'lim shakli istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatini beradi. Sifatli ta'lim kafolatlanadi, chunki kurslar Stanford universitetining professorlari tomonidan



olib boriladi. Shuningdek, masofaviy ta'lim xarajatlarni tejaydi bu orqali darslarni raqamli texnologiyalar orqali o'tilgani sabab ta'lim olish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi.

Biroq masofaviy ta'limning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Mustaqil o'rganish uchun o'rganuvchidan yuqori darajada intizom talab etadi. Chunki ba'zan o'quvchida motivatsiya yetishmaslik holat-

lari ko'p kuzatiladi, unga shu paytda intizom juda katta asqatadi. Keyingisi an'anaviy ta'limdagi kabi yuzma-yuz muloqot imkoniyati kamroq bo'ladi. O'quvchi o'qituvchisi bilan ko'proq aloqa o'rnatganda, ular o'rtasida o'zaro ishonch tuyg'usi shakllanadi. Bugungi kunda biz raqamli dunyoda yashayotgan ekanmiz, biz shu kabi ta'lim shakliga moslashishimiz zarur.

E'zozabonu ABDUMUTALIYEVA, Mohinur ISMATOVA

*Stanford onlayn ta'lim platformasi
ma'lumotlari asosida tayyorladi.*



